

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

ATOYEVA SHAMSIYA RAHMON QIZI

ALISHER NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" VA
ABDURAHMON JOMIYNING "XIRADNOMAYI ISKANDARIY"
ASARLARIDAGI HIKOYATLARNING QIYOSIY TAHLILI

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

Ilmiy rahbar:

Filologiya fanlari nomzodi

D. Yusupova

TOSHKENT - 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. Jomiy va Navoiy Iskandarga doir dostonlarining yaratilish tarixi

1.1 Abdurahmon Jomiy dostonining yaratilish tarixi.....	8
--	----------

1.2 Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” sining yaratilish tarixi.....	17
--	-----------

II BOB. Dostonlardagi hikoyatlarning mushtarak va farqli jihatlari

2.1 G’oyaviy jihatdan uyg’un, voqealar rivojida farq qiluvchi hikoyatlar.....	27
--	-----------

2.2 Dostonlardagi yangi syujetga ega bo’lgan hikoyatlar talqini.....	48
---	-----------

XULOSA.....	71
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	74
--	-----------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Soʻz sanʼati oʻz tabiatiga koʻra nechogʻlik milliy boʻlmasin, baribir bir xalq yoki millat madaniyatining sarhadlari bilan chegaralanib qolmaydi. U koʻzga koʻrinmas rishtalar orqali boshqa xalqlar madaniyati, adabiyoti bilan aloqaga kirishadi, bir-birining yutuqlaridan bahramand boʻladi, vaqti kelganda esa maʼlum darajada oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Har qanday millat borki, uning adabiy merosi, oʻziga xos urf-odatlar shu xalqning maʼnaviy ehtiyojlarini qondirishga hamda saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda adabiy aloqalarning rivojlanishi ham millat maʼnaviy dunyosining boyishida katta rol oʻynaydi. Adabiy aloqalarning rivojlanishiga bir qator omillar taʼsir koʻrsatadi. Xalqlarning yashash tarzi, urf-odatlar, diniy eʼtiqodi, umuman madaniyati oʻrtasidagi yaqinlik va mushtaraklik shular jumlasidandir. Qadimdan bir-biriga qondosh-jondosh boʻlib yashab kelgan xalqlarning adabiy aloqalari yanada mustahkam va samaraliroq boʻladi.

Xalqimizning maʼnaviy dunyosining shakllanib, rivojlanishiga gʻoyat kuchli taʼsir koʻrsatgan, adabiyotimiz ravnaqi va mukammal boʻlishi uchun xizmat qilgan, xalqimizning diniy, tasavvufiy-falsafiy tafakkurini boyitishda alohida oʻrin tutgan ulugʻ siymolarimiz: Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylardir.

XV-XVI asrlar oʻzbek va tojik adabiy aloqalari ham shu ikki ijodkorlarning yaqin ijodiy aloqalari sababli rivojlanadi. Bu ikki ulkan soʻz sanʼatkorlarining ijodiyoti ikki xalq doʻstligining yaqqol timsolidir. Ular oʻzlarining buyuk isteʼdodlari, shoh asarlari bilan jahon madaniyati xazinasiga tuganmas hissa qoʻshgan yirik ijodkorlar sanaladilar. Ularning goʻzal va jozibador lirikasi, besh buyuk dostoni - “Xamsa”si bugungi kinga qadar insoniyat badiiy boyligining ajoyib durdonasi boʻlib kelmoqda. Koʻp asarlarni yozishda oʻzaro hamfikir boʻlganlari singari bu jihat Iskandar haqidagi dostonlarda ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Abdurahmon Jomiy qator asarlarida ulugʻ oʻzbek shoirining isteʼdodi,

ijodiyoti va shaxsiyatiga benihoya yuqori baho bergan, “Xiradnomayi Iskandariy” dostonida o‘z zamondoshi va muridining ta’rif-tavsifiga alohida bob ajratgan. Shu bilan bir qatorda Alisher Navoiy ko’pgina badiiy va ilmiy asarlarida ulug’ Jomiyni alohida ehtirom bilan tilga oladi hamda “Xamsa” dagi har bir dostonning “So’z ta’rifi” qismidan so’ng ulug’ ustozlari safida Abdurahmon Jomiyga ham alohida bob ajratilgan Xususan, “Saddi Iskandariy”ning yettinchi bobi Abdurahmon Jomiyga bag’ishlanadi.

Alisher Navoiyning ijodiy merosi o‘z davri, qolaversa, so’nggi besh asr mobaynidagi ko’plab ilm ahllari tomonidan o’rganilgan. Xususan, istiqlol sharofati va Prezidentimiz sa’y-harakatlari tufayli ma’naviy merosimiz, jumladan Navoiyning faoliyati va ijodini qayta talqin qilish hamda ommalashtirish imkoniyati tug’ildi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov Hazrat Navoiyga haqli ravishda yuksak baho berdilar:”Alisher Navoiy xalqimiz ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning tengsiz g’ururi, sha’ni- sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’atkoridir.

Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mytafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir...”¹

Navoiy ijodi asrlar davomida avlodlarning so’nmas hurmatiga sazovor bo’lib, qator ulkan san’atkorlarning ijodiy kamolotga yetishuvida mahorat maktabi bo’ladi. Xususan, “Xamsa” ning yakunlovchi dostoni bo’lmish “Saddi Iskandariy” dostoni ham adabiyotimiz ravnaqiga katta hissa qo’shib kelmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishimizda Hazrat Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” bilan Mavlono Jomiy qalamiga mansub “Xiradnomayi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlarni qiyosan o’rganishni lozim topdik. Bu yo’ldagi urinishlarimiz tojik va o’zbek adabiy aloqalarining , xususan,

¹ Каримов. И. А. Юусак-маънавийт енгилмас куч. –Т.: Маънавийт, 2009. – Б. 47

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy adabiy hamkorligining yangi qirralarini ochishga yordam beradi. Shuningdek, Navoiyning “Saddi Iskandariy” va Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlardagi hikoyatlarning mushtarak va farqli jihatlari, undagi qahramonlarning ruhiyati, voqealar rivoji va ularning keltirilish o‘rinlarining sabablarini o‘rganish ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini ta’minlaydi.

Mavzuning o‘rganilish tarixi. Hazrat Navoiy asarlariga qiziqish o‘zi yashagan davrdan boshlab bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Navoiy qalamiga mansub hamma asarlarining muayyan jihati o‘rganilgan va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Hazrat Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini o‘rganish XV asrning o‘zidayoq boshlangan bo‘lsa-da, uni yangicha asosda tadqiq qilish va nashr etishda taniqli sharqshunos olimlarning xizmatlari katta bo‘ladi. Ular dostonning g‘oyaviy- badiiy xususiyatlari va o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida ahamiyatga molik fikrlarni aytib o‘tishgan. Navoiyning bu dostoni bo‘yicha Y. E Bertels, S. Ayniy, O. Sharafiddinov, V. Vohidov, A. Qayumov, N. Mallayev, A. Hayitmetov, B. Valixo‘jayev, I. Mirzayev va boshqalar ko‘plab tadqiqot olib borishgan¹. Shuningdek, M. Hamidovanning “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy ” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi” (1994) mavzusidagi dissertatsion ishi mavjud. Shu bilan bir qatorda Abdurahmon Jomiy ijodi, xususan, uning “Haft avrang” asarini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida o‘rganish XX asr ibtidosidan boshlandi. O‘z navbatida “Xiradnomayi Iskandariy”ni tahlil va targ‘ib qilish ham shu davrdan boshlandi. Natijada, Jomiy va uning dostonini o‘rganishga bag‘ishlangan talay tadqiqotlar yuzaga keldi.

¹ Бертельс Е. Э. Навои. Опыт творческой биографии.- М. :Изд. АнСССР,1948; Айни С. Алишер Навоий. – Сталинобод, 1948; Шарофиддинов О. Танланган асарлар.- Тошкент, 1978, 148-154- бетлар; Қаюмов А. Садди Искандарий.- Тошкент, 1975; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент, 1973, 204-211-бетлар

Shu o'rinda "Xiradnomayi Iskandariy" ning ilk noshir va tadqiqotchilaridan biri M. Rahimiy nomini alohida hurmat bilan tilga olish lozim. Olimning sa'y-harakatlari bilan 1952-yida Jomiyning qisqa "Xiradnomayi Iskandariy" dostoni chop etildi¹.

Navoiy va Jomiy dostonlari haqida nisbatan teranroq tadqiqotni rus sharqshunosi Y. E. Bertels amalga oshirgan. U o'zining "Iskandar haqidagi romani va uning Sharqdagi yetakchi versiyalari" va "Navoiy va Jomiy" nomli asarlarida bu ikki ulug' shoir "Iskandarnoma" larining tarixiy va adabiy sarchashmalarini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, Y. Azimovning "Abdurahmon Jomiy "Xiradnomayi Iskandariy" dostonining qiyosiy-tipologik tahlili" (1996) mavzusidagi dissertatsiyasi ham shu yo'nalishdadir.

Hazrat Navoiy va Jomiy "Iskandarnoma" lari xususida bir qancha ilmiy ishlar qilingan bo'lsa-da, dostonlardagi hikoyatlar, ulardagi mushtarak va farqli jihatlar, voqealar rivoji hamda hikoyatlarning "Iskandar voqeasi" ga aloqadorligi-yu, ularning keltirish o'rnining sabablari alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan edi. Mazkur ish ana shu masalalarni imkon qadar yoritishga bag'ishlangandir.

Ishning maqsadi Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlaridagi hikoyatlarning qiyosi, uyg'un va farqli jihatlari hamda o'ziga xosliklarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Ishning vazifalari:

- Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" va Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlarining yaratilish tarixi bilan tanishib chiqish;
- Dostonlardagi hikoyatlarni bir-biriga muqoyasa qilish;
- Jomiy va Navoiy "Iskandarnoma"laridagi g'oyaviy jihatdan uyg'un, lekin voqealar rivojida farqlanuvchi hikoyatlarni aniqlash va tahlil qilish;
- Dostonlardagi yangi syujetdan tarkib topgan hikoyatlarni talqin qilish;

¹ Абдурахмон Чомӣ. Мухтасари "Хирадномаи Искандарий". –Сталинобод, 1952; Абдурахмон Чомӣ. Интиҳоб аз асарҳо. –Сталинобод, 1956

- Dostonlardagi hikoyatlarning Iskandar voqeasini ochib berishdagi o'rnini aniqlash.

Tadqiqot ob'yekti qilib, Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik.- Toshkent: Fan, 1993. 11-jild va Alisher Navoiy . Saddi Iskandariy.- Toshkent: G'. G'ulom, 2006 nashlari, shuningdek, Sh. Shomammedov tarjimasida 1978-yil Toshkent shahrida nashr etilgan Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostoni va unga qo'shimcha Stalinobodda 1956-yilda chop etilgan Abdurahmon Jomiyning "Intixob az asarho" asarlari olindi.

I BOB. Jomiy va Navoiy: Iskandarga doir dostonlarining yaratilish tarixi

1.1 Jomiy dostonining yaratilish tarixi

Sharq mumtoz adabiyotida eskirmaydigan va hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydigan mavzulardan biri Iskandar haqidagi dostonlardir.

Aleksandr Makedonskiy tarixi va shaxsi Sharq badiiy adabiyotiga to'laqonli syujet va timsol sifatida X-XI asrlarda kirib keldi. Milliy Mustaqillikka erishgach, ko'pgina davlatlarda milliy ong o'sdi, natijada qahramonona o'tmishga qiziqish ortdi.

Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida qalamga olingan. Iskandarga bag'ishlangan dostonlar "Xamsa" ning yakunlovchi dostonidir. Firdavsiydan so'ng Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus "Iskandarnoma" degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida "Oynayi Iskandariy" asarini yozgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy o'z dostonini "Xiradnomayi Iskandariy" deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o'z asariga "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") deya nom beradi.

Firdavsiy o'z asarida Iskandar voqeasini tasvirlashda tarixiy asarlardan ko'ra soxta Kallisten asariga suyanadi. Shuningdek, "Shohnoma"sida Eron yilnomalari va "Aleksandr faoliyati" elementlaridan foydalanib yangi mazmun yaratadi. Asarni yangi afsona va ajoyibotlar bilan boyitadi. Firdavsiy asarida Eronning o'z tarixi afsonalashtirilgandek Iskandar tarixi ham haqiqiy Aleksandr tarixidan yiroq tasvirlagan. Bertels , shu holatga e'tibor qaratib "Iskandar timsoli aniq shakllanmagan", deydi. Firdavsiy Iskandarni Eron shohlaridan biri sifatida tilga olib, badiiy to'qima orqali insonparvarlik g'oyalari bilan boyitilgan shoh timsolini yaratadi. Uning oldidagi bosh maqsad shohlar tarixini yaratish edi, shuning nuchun ham Iskandar to'laqonli badiiy obraz darajasiga ko'tarila olmagan.

Sharqda Iskandar haqida dastavval yirik maxsus doston yaratgan shoir Nizomiy Ganjaviydir. O'zining aytishiga ko'ra, u shoh haqida yaxlit asar ko'rmagan. "Iskandarnoma" da qahramon faoliyati uch nuqtai nazardan beriladi-jahonni zabt etuvchi, donishmand-faylasuf va payg'ambar. Iskandar timsoli odil shohdan olim-faylasuf, donishmand darajasiga va nihoyat nabiylikka ko'triladi.

Amir Xusrav Dehlaviy ham Iskandar tarixiga murojaat qilib, o'zining "Oynai Iskandariy" dostonini yaratdi. Asar shoir "Xamsa" sining beshinchi dostoni hisoblanadi. Amir Xusrav qahramoni o'ziga qadar yaratilgan Iskandarlardan bir muncha farq qiladi. "Oynai iskandariy" da asar bosh qahramoni taqdirida ilohiyotning ta'siri kuchli seziladi.

"Tarixiy Iskandar 33 yil umr ko'rgan bo'lsa Firdavsiyda 32 yil, Nizomiyda 36 yil, Amir Xusravda esa 100 yil umr ko'radi. "Iskandar podsholigi", "Iskandarnoma", "Oynai iskandariy" ni qiyosiy-tipologik o'rganish jarayonida quyidagi farqlar namoyon bo'ladi: Nizomiyda u jahongir, hakim va payg'ambar, Xusravning Iskandari mohir sarkarda, ixtirochi donishmand va islom dining tolmas targ'ibotchisi qiyofasida namoyon bo'ladi"¹.

XV asrning 80-yillarida Hirotida ustoz va shogird Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham Iskandar Zulqarnayn mavzusida asar yozdilar. Bular: "Xiradnomayi Iskandariy" va "Saddi Isakandariy" dostonlaridir. Har ikkala doston deyarli bir ijtimoiy muhitda bir-biriga ruhan juda yaqin bo'lga ikki buyuk zot tomonidan yaratilgan. Har ikkala doston biri ikkinchisini to'ldirgan holda yuzaga kelgan deyish mumkin.

Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Haft avrang"ining yettinchi dostoni bo'lmish "Xiradnomayi Iskandariy" avvalgi "Iskandarnoma"lardan farqli o'laroq, asosan, pand-nasihatdan iborat bo'lib, voqelik mazmunan qisqa keltirilgan. Doston asosan 7 xiradnoma, donishmandlik kitobidan iborat.

¹Азимов Ю. Абдурахмон Жомий. Хирадномайи Искандар достонининг қиёсий – типологик таҳлили. Филология фанлари номзоди диссертатсияси, - Самарқанд: 1996. –Б. 12

“Jomoyning Iskandar haqidagi asari falsafit-didaktik doston, Iskandar timsoli esa mavhumlashtirilgan. Iskandar shaxsi, faoliyati shoir fikrlarini izhor qiluvchi vosita, xolos. Aleksandr timsoli Makedonita, Gretsiya va u zabt etgan Sharq mamlakatlari tarixidan uzib olingan holda talqin etilgan”¹.

Jomiy ham Nizomiy kabi dostonida zamonasi oldida turgan falsafiy masalalarga, ayniqsa, bu o'tkinchi dunyoda insonlar qanday hayot kechirishlari, qanday qo'llanmaga amal qilishlari kerak, degan masalalarga e'tiborini jalb etadi. Har bir odam imkonni boricha insoniyatga foydali ish qilishi kerakligi asarda kitobxonga uqtiriladi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”ning sakkizinchi bobida Jomiy haqida gapirib:

*Eshittim, qilib zeb daftar so'zin,
Qilur nazm go'yo Skandar so'zin,
Vale qilmayin mayl holatig'a ,
Shuru' aylamishdur maqolatig'a.
Qo'yubtur tavorixu afsonasin,
Bitipdur degan durri yakdonasin,*

-deydi. Demak, Jomiy Iskandar tarixi ko'pchilikka ma'lum bo'lgani uchun “qo'yubtur tavorixu afsonasin” va asosiy diqqatini “durri yakdona”, pand-nasihat, chuqur ma'noli baytlarni bitishga qaratadi.

“Xiradnomayi Iskandariy” (Iskandarning donishmandlik kitobi) – hijriy 890-melodiy 1485-yilda yozilgan (Alisher Navoiy bilan bir davrda).

Jomiy ijodkor bo'lishi bilan birga so'fiy ham edi, bu holat u yaratgan asarlarida ham namoyon bo'ladi. “U – shoir, u- faylasuf, u-filolog, u-musiqashunos. Lekin shu bilan bir qatorda u ko'proq so'fiy. Uning uchun borliqni anglashning ikki ko'rinishi mavjud – borliq sirlari va ijod sirlari”². Avtobiografik qasidasida shoirning o'zi bu haqda:

¹ Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 144

² Конрад Н. И. Запад и Восток,- М. : Главная редакция Восточной литературы, 1972. -С .276

*Zadam qadam ba safi so'fiyoni sofi dil,
Ki nest maqsadashon az ulum juz a'mol.
(Sof yurakli so'fiylar safiga qadam qo'ydim,
Chunki ularning ilmdan boshqa ishlari yo'q).*

deydi.

Shuning uchun ham Jomiy Iskandarning shohligidan ko'ra ko'proq uning hikmatlariga, nasihatlariga ahamiyat beradi, Iskandarning o'zini ham donishmandlar safiga qo'shib yuboradi. Shu jihati bilan Jomiyning bu dostoni o'zidan oldingi dostonlardan keskin farq qiladi. Shoir aql-idrok va bilimning kishi hayotidagi, shoh siyosatidagi rolini ifoda etib beradi. Abdurahmon Jomiy bu dostonida o'zining falsafiy-ijtimoiy qarashlarini, gumanistik konsepsiyasini bayon etadi.

Doston tilining soddaligi ham, badiiy ifoda vositalarining lo'ndaligi, nazariy o'gitlardan so'ng uning isboti uchun keltirilgan katta-kichik hikoyat-masallar ham asosiy gumanistik g'oyaning kishilar diliga singishi uchun xizmat qiladi. Bu sohada ayniqsa bo'limlar oxirida soqiyga va mutribga qarata aytilgan baytlar ham juda katta ijtimoiy-g'oyaviy yukni o'zida saflaydi va mazkur bobda ilgari surilgan g'oyani xulosalaydi.

Madomiki, doston oldiga axloqiy nasihat, pandnomalik vazifasi qo'yilgan ekan, demak, uning tili barchabop, sodda, betakalluf, shuningdek, juda ma'nodor, xalq maqollaridek serjilo, serqirra, shaklda shinam-u mazmunda chuqur obrazli bo'lishi kerak edi.

Jomiy dostoni bu talablarga to'liq javob beradi. Natijada dostonning ko'pchilik baytlari, hikmatli so'zlar, o'tkir aforizmlar bo'lib jaranglaydi:

*Dono suhbatidan bosh tortsa nodon,
Davrondan yaxshilik ko'rmas hech qachon.
Agar iflos bo'lsa ariqdagi suv,
Kiyim toza bo'lmas uni yuz bor yuv.
Chiroyli so'zinnga bo'lma mahliyo,*

So'zingdek ishingni bezat avvalo.

Agar suv zilolu shakarbo'lsa ham,

*Ichma keragidan ortiq yo kam.*¹

“Xiradnomayi Iskandariy” dostoni 78 qismdan iborat. Qiyoslashlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, Abdurahmon Jomiy nafaqat xamsachilik an'anasi, balki uning tarkibidagi sayyor mavzularga murojaat bobida ham jiddiy o'zgarishlar kiritgan. Shunday fikrni “Xiradnomayi Iskandariy” qurilmasi haqida ham aytish mumkin.

Darhaqiqat, ushbu asar o'zining tuzilishi, voqealar rivoji, g'oyaviy yo'nalishi jihatidan boshqa “Iskandarnoma” lardan batamom farq qiladi va ayni o'sha o'zgarishlar dostonning o'ziga xosligini ta'minlaydi.

Doston muqaddima, asosiy boblar va xotimadan tarkib topgan. Asarning muqaddimasi 12 qismni tashkil qiladi. “Muqaddimaviy boblarni g'oyaviy mazmun va ifodaviy xususiyatiga ko'ra 3 yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi Ollohga hamd, munojot, na't va me'roj kabi an'anaviy boblar kiradi. Shoirning ma'naviy piri Xoja Ahror vali, zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sahifalar, ma'naviy murshidning ijtimoiy- falsafiy qarashlaridan iborat adolaot to'g'risidagi nazariy bob ikkinchi yo'nalishni tashkil qiladi. Uchinchisi 5 qismdan iborat bo'lib, bu qismlar ikki asosiy bobga mantiqan bog'langandir ”².

Abdurahmon Jomiy parvardigorning yagonaligi va butun mavjudot xudoning tajalliysi ekanligiga imon keltirgan, bu g'oyani o'z asarlarida katta e'tiqod va ishonch bilan targ'ib qilgan. “Xiradnomayi Iskandariy” dostonida irodatu e'tiqod, parhezkorlik, halol maosh orqasidan yashash, vafo va muhabbat, raiyatparvarlik kabi g'oyalar ilgari surilganki, bular naqshbandiya ta'limotining asosini tashkil etadi.

¹ Жомий Абдурахмон. Хирадномайи Искандар. – Т. 1978. –Б. 21. Таржимон: Шоаҳмедов. III

² Азимов Ю. Абдурахмон Жомий. Хирадномайи Искандар дostonининг қиёсий – типологик таҳлили. Филология фанлари номзоди диссертацияси, - Самарқанд: 1996. –Б. 13

Jomiy ham Nizomiy kabi Iskandarning dunyoga kelishi haqidagi afsonalarga ishonmaydi, dostonida Iskandar Makedoniya shohi Faylaqusning o'g'li. Faylaqus shahzoda tarbiyasini faylasuf olim Arastuga topshiradi. O'limi oldidan u donishmandlarni chaqirib o'g'lini imtihon qiladi. Shohning tipshirig'iga binoan donishmandlar Arastu, Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus, 7 olim Iskandar uchun xiradnoma yaratib o'rta asr fani, falsafasi, ayniqsa, tasavvufning naqshbandiya tariqati asoslarini bayon qilganlar.

Bulardan tashqari Iskandarning o'zi ham xiradnoma yozgan. Arastuning, Iskandarga yozgan xati, donishmandlarning Iskandar qabri ustida aytgan nutqlarini ham o'ziga xos xiradnoma deb qarashimiz mumkin.

Jomiy asarida ham Navoiydagidek Iskandarni xalq podshoh etib saylaydi. Iskandarning eng asosiy fazilati ham xalq foydasini ko'zlashdir.

Mayli, bo'lsa hamki o'ziga zarar,

Xalqqa yaxshilikni o'ylar Iskandar.

Dostonidagi voqea izchilligi Nizomiydan o'zgacha va nihoyat qisqa: zanjilar bilab jang, keyin Eronga yurish, Doroning o'limi, avval Shimol, keyin Sharq, janub va yana G'arbga, keyin Chin, Xorazm va Hind ellariga yurishlar, ya'juma'jumlardan saqlanish uchun sodd qurish va nihoyat Xizr, Ilyos va Apolloniy Tianskiy ishtirokida dengiz safari va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Jomiyning maqsadi Iskandar tarixini bayon qilish emas. Jomiyning orzusi ideal jamiyat qurish. Dostonida u shohlarga yana bir bor murojaat qiladu, nihoyat oddiy tarzda ularning asosiy vazifasini eslatadi: shoh mamlakatda zulmni bartaraf qilish uchun zarur, agar u bu vazifani uddalay olmasa, yurt uchun bunday shohning hojati yo'q. Abdurahmon Jomiy adabiyotshunoslarimiz ta'kidlaganidek, mamlakat shohsiz ham bo'ladi, demoqchi emas, albatta. Lekin Iskandar xalq foydasini ko'zlagani uchun ham xalq uni podshoh qilib saylagan.

Jomiy dostonida ham Nizomiydagi kabi Iskandar hokimlar va xususiy mulk bo'lmagan shaharga keladi:

*Na eshon tavongare kase, na faqir,
Bar eshon na sulton kase, na amr.
Barobar ba ham qismati molashon,
Muvofiq ba ham so'rati holashon.
(Bular orasida na boylar, na kambag'allar bor.
Ular ustida turuvchi na eshon, na amr bor.
Hammaning mol- mulki barobar,
Bir-biriga nisbatan mavqeyi ham barobar).*

“Xiradnomayi Iskandariy” dostoni tarkibidagi 23 ta she'riy hikoyat keltirilgan bo'lib, ular hajmi, tuzilishi va g'oyaviy mazmuniga ko'ra bir- biridan farq qiladi. Dostondagi “Iskandar va Gado” hikoyati “Saddi Iskandariy”dagi shu nomli hikoyat bilan to'la o'xshashdir. 5 ta hikoyasi voqealar rivojida farqlansa-da, mazmun jihatdan Navoiy dostonidagi hikoyatlar bilan o'zaro mushtarakdir. Qolgan hikoyatlar o'ziga xos suratda keltirilgan. Bu hikoyatlarning ayrimlari sayyor mavzularda bo'lsa, ba'zilar muallif kashfiyotidir. Ulardan 3 tasi she'riy masal janriga mansub.

“Xiradnomayi Iskandariy” da voqea, hikoyatlar faqat asosiy nazariy fikrlar, pand- nasihatlarni bayon etish vositasi, xolos. Jomiy dostonida Firdavsiy, Nizomiy va Xusrav Dehlaviyda bo'lgan qahramonlik unsurlari umuman yo'q. Natijada Jomiy Iskandarida tarixiy Aleksandr Makedonskiy nomidan boshqa deyarli hech narsa qolmagan. Jomiy Iskandari haqshbandiy ta'limotiga mansub bo'lgan, kishilar orzu qilgan podshoh, xolos.

Jomiy dostoni davomida qahramonda hech qanday o'zgarish yuz bermaydi, shohlik faoliyati boshlanishdanoq Iskandar adolatli hokim, u faqat xalq faravonligi, tinch- totuv yashashi uchun qayg'uradi, xayrli ishlar qiladi, illatlarga qashi kurashadi, u haqiqatgo'y va donishmand. Lekin Jomiyning ideal hokim haqidagi qarashlari mavhum holda berilgan. Jomiy yaratgan Iskandar timsolida o'sish – o'zgarish sezilmaydi.

Doston muallif ijodiyotining barkamollik pallasida yaratilgani yaqqol sezilib turadi. Bu asarning nomlanishidanoq ko'zga tashlanadi. Ikkinchidan, adibning boy ijodiy va hayotiy tajribasi, sinchkovlik bu kuzatishlarining samarasi- pand hikmatlar, maqol darajasiga ko'tarilgan lo'nda xulosalar tarzida hokimlar nutqi orqali o'quvchilarga yetkaziladi. Dostonda ishtirok etadigan hakimlar garchi yunon o'lkasidan bo'lsalar-da, ular sharqliklarga xos mulohaza yuritishadi. Donishmand Jomiyning zakovati, falsafiy- axloqiy tafakkuri talablari yunon hakimlari tilidan so'zlanadi.

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy bir tomondan hakimlar timsoli orqali ilm va ma'rifatni tar'ib qilgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, tafakkurning davlat osoyishtaligi taraqqiyotini ta'min etishdagi hissasini ochib berishga intilganlar. Yana zamono hukmronlariga ilm- fan namoyandalarini davlat idorasiga ko'proq jalb qilib, ularga g'amo'rlik ko'rsatish kerakligini uqtiradilar.

Aslida, Abdurahmon Jomiy ijodining dastlabki yillaridanoq Iskandar siymosiga murojaat qilib kelgan. U shohlar obrazini yaratayotib, ularning qiyofasini ma'naviy kamolotga eltuvchi xislatlar bilan to'ldirib borardi. O'sha izlanishlar keyinchalik Iskandarning to'laqonli obrazi yaratilishiga zamin hozirladi. Adib o'zining "Xiradnomyi Iskandariy" dostonigacha va undan keyin yaratgan asarlarida ham Iskandarning siymosiga qayta-qayta murojaat qiladi. Allomalarning bunday izlanishlari ba'zan parokanda, ba'zan esa Iskandar hayotidan ayrim hikoyatlar keltirilgan holatda o'quvchiga taqdim qilinadi. Aytganlarimizni shoirning "Silsilatuz- zahab", "Salamon va Absol" dostonlari , shuningdek , devonlari tarkibidan joy olgan she'rlarida ko'rish mumkin.

Manbalarda Iskandarning payg'ambarligi to'g'risida bir- biriga zid qarashlar mavjud. Qur'oni karimning tafsirlarida ham ayni masalaga shubha bilan qaraladi. Abdurahmon Jomiy esa Qur'onning "Kahf" surasiga tayangan holda uning payg'ambarligini e'tirof etadi va qahramonining hamma amaliyoti, kirdikorlari Ollohning irodasi bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida Iskandar payg'ambarligining

e'tirofi bir- biridan farq qiladi. Nizomiyda Iskandarning payg'ambarlikka yetishish jarayoni xudodan vahiy kelishi va uning payg'ambarlik faoliyati mufassal qalamga olinadi. Abdurahmon Jomiy dostonida bu manzaralar nisbatan muxtasar tasvirlangan. Nizomiyda Iskandarning payg'ambarligi shoir tilidan berilsa, Abdurahmon Jomiyda bu haqiqat o'z so'zlaridan ayon bo'ladi. Alisher Navoiy dostonida Iskandarning dengizga qilgan sayohati uning payg'ambarlik darajasiga yetishish yo'lida chekkan zahmat-u riyozatlari va poklanishning eng oily cho'qqisi sifatida tasvirlanadi.

So'zimiz so'nggida quyidagilarni aytishimiz mumkinki, Abdurahmon Jomiy, umuman, fors-tojik she'riyatining yirik mutafakkiridir. Uning ijodiy sahnasi keng, jilolari rang- barangdir. U o'zining besh asr oldin yaratgan ijodi bilan fors-tojik adabiyotining ko'p turlarini qamrab olib, ularga yangi jilo bera bilgan ijodkordir. Jomiy ijodi rango-rang bo'lgani uchun Alisher Navoiy uni "Hayot naqqoshxonasi" deb atagan edi. Yoki Navoiy Jomiyga bir bayt bilan baho berar ekan:

O'zini xud jahoni bekaron bil,
Kamolotin o'zidek bir jahon bil.
degan edi.

Ulug' nemis shoiri Gyote Jomiy haqida: "O'ziga qadar va u bilan bir qatorda bo'layotgan hamma narsaga uning qurbi yetar edi. U bularning hammasini bir bog' qilib bog'lagani tufayli, taqlid qilgani, yangilagani, avjiga mindirgani, o'zidan oldin o'tganlarning nuqson va fazilatlarini juda aniqlik bilan o'zida mujassamlashtira olgani uchun undan keyingilarga sifatni pasaytirmaslik sharti bilan unga taqlid qilishdan boshqa chora qolmadi..."¹, deydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdurahmon Jomiy ijodi o'z davridagi hayot ko'zgusi bo'lib, o'sha davrdagi salmoqli g'oyaviy yo'nalishlardan tortib,

¹ И. В. Гёте. Примечания к западно-Восточному дивану. Проблемы Востоковедения № 4, 1960.- С. 183

hayotning maydaroq tomonlarini ham o'zida aks ettira olgan. Xuddi shunday ta'rifni "Xiradnomayi Iskandariy" dostoniga ham berish mumkin.

1.2 Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining yaratilish tarixi

Ko'pgina salaflari singari Alisher Navoiy ham xamsachilik an'anasini davom ettirdi. Hazrat Navoiyning boshqa xamsanavislardan farqli jihati shundaki, u o'z "Xamsa" sini turkiy tilda yaratdi.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning Iskandar Zulqarnayn tarixiga bag'ishlangan "Saddi Iskandariy" dostoni "Xamsa" ning yakunlovchi beshinchi dostoni sifatida yaratilgan. U ham o'z salaflari Nizomiy, Dehlaviy va ustoz Jomiy kabi oldiga tarixiy doston yaratishni vazifa qilib qo'ymagan edi. Shoir uchun Iskandar tarixiy lashkarboshi emas, balki ideal hokim, sarkarda, haqiqat izlovchi olim, tabiat, jahondagi bahru bar (ho'llik va quruqlik) tadqiqotchisi. Dostonni kitobxon qo'llanma sifatida qabul qilishi ham lozim bo'lgan o'gitlar to'plami ham deyish mumkin. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar o'z "Iskandarnoma" larini yozar ekanlar, davr talabi va o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu masalani hal qiladilar. Shuning uchun Makedoniya lashkarboshisining nomi Navoiy asarlarida Iskandar, Skandar shaklida yuzlab marotaba tilga olinadi.

Alisher Navoiy ham birinchi dostonidayoq Iskandar haqida to'xtalgan. "Xamsa" ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" ning (1483) qirq sakkizinchi bobi sarlavhasi "Aflok hay'ati shikoyatidakim..." so'zlari bilan boshlanib, taqdir qanchalik o'zgaruvchi, bu dunyo, saltanat, hokimyat o'tkinchi, Faridun, Jamshid, Doro, Iskandar, Chingizxon, Temur kabilar qachalik qudratli bo'lishlariga qaramay, olamdan o'tdilar, bu dunyoda insonning faqat yaxshi ishlari qoladi, degan pand- nasihat so'zlari bilan tugallanadi. 25 baytdan iborat bo'lgan qirq to'qqizinchi bobda Iskandar tarixi qisqa bayon etilib, shohning qo'lini tobutdan

chiqarib qo'yishlari , jahonni zabt etgan shahanshoh ham bu dunyodan hech nima olib ketmayotgani hammaga ibrat bo'lsin, degan maqsadda keltiriladi:

*To kishikim qilsa nazar ul sori,
Ibrat ila boqqay o'shal qo'l sori,
Bilgay anikim, yeti kishvar shahi,
Yeti falak mushkilining ogahi,
Jismida jon yo'q bu makondin borur,
Xoli ilik birla jahondin borur.*

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” (1488) asarini yozar ekan, Iskandar yurishlari mavzusiga to'xtamay o'tishi mumkin emas edi. Ushbu asardagi boblarning birida Iskandarga maxsus joy ajratilib, uni Banokatiyning “Devon un-nasab” , Amir Xisrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy” va Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” asarlariga suyanib yozgani haqida ma'lumot beradi.

“Saddi Iskandariy” Navoiy dostonlari ichida eng yirigi hisoblanadi. Doston 89 bobdan iborat bo'lib, 7215 baytni tashkil etadi. “Xiradnomayi Iskandariy” esa 2315 bayt, demak, Navoiyning dostoni Jomiynikiga qaraganda 3 baravar kattadir. “Saddi Iskandariy” “Xiradnomayi Iskandariy”dan bir necha oy oldin yozib tugallangan.

Doston muqaddimasi 14 bobni o'z ichiga oladi. Asar muqaddimasida “Xiradnomayi Iskandariy” singari nazariy qism va hikoyatlar mavjud emas.

“Saddi Iskandariy”ning muqaddimaviy qismiga xudo hamdi, munojot, pang'ambarga na't, me'roj va madh, shuningdek, an'anaviy parchalar sirasiga faxriya, so'z ta'rifi, kitob nazmining sababi, farzandga nasihat va shoirning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy, axloqiy- falsafiy boblar ham kiradi.

Hamd – bu Ollohning va unga xos xususiyatlarning ta'rifi bo'lib, shu bilan birga Parvardigorning biru borligiga iymon keltirishning yoqin namunasi. Bunaqangi tuzilma mumtoz davri adabiyotida barcha asarlarga xosdir.

Dostonning 1-bobini hamd qismi tashkil etadi. Hamd- Oллоhning sifatlariga bag'ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta'limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to'xtalib o'tadi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oily zot-Odamni yaratish ekanini ta'kidlaydi.

Karam birla xalq aylagay olame,

Bu olamda maqsud anga odame.

G'araz odame anga olam tufayl,

Nekim g'ayri olamdur , ul ham tufayl.

Ikkinchi bobi munojotni o'z ichiga oladi va bunda Navoiy Oллоhga murojaat qilib, qilgan gunohlariga afv hamda asarni yozishga najot so'raydi.

Dostonning uchinchi bobi Muhammad payg'ambar (s. a. v.) madhiga bag'ishlanadi. An'anaga muvofiq, na'tdan so'ng me'roj tuni ta'rifi keladi.

Falak ahli ichra alolo tushub,

Malak xayliga sho'ru g'avg'o tushub.

Maloik tutub yo'l boshin javq- javq,

Tamoshosida borcha ko'nglida shavq.

Beshinchi bobida "Xamsa"ning takmili xususida bo'lib, Navoiy bu bobda unda "Xamsa" yozish havasi ancha oldin , Nizomiy va Dehlaviy "Xamsa" larini o'qib yurgan chog'laridayoq uyg'onganini bayon qilib, ulug' ustozlari ruhidan madad so'raydi:

Bu vodiya aro Xizr rohim bo'ling,

Qayon yuz ketursam, panohim bo'ling.

Burundun chu ko'rguzdunguz yorliq,

Base yetti sizdan madadkorliq.

Kichik erkanimdan bo'lib qoshima,

Ulug' muddao soldingiz boshima.

Dostonning oltinchi bobi so'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o'z ichiga oladi. Yettinchi bobi Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlanadi. Shu tariqa har bir bob ma'lum mavzuga bag'ishlangan.

Dostonning asosiy qismi 15- bobdan boshlanadi. Asosiy qism o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi to'rt qismga bo'lish mumkin:

1. Iskandar voqeasi- Iskandar hayoti bilan bog'liq biror voqea yoki hodisa bayoni

2. Nazariy masala- muayyan axloqiy muammoning ta'rifi

3. Hikoyat- shu axloqiy masala doir hikoyat

4. Hikmat- Arastu va Iskandarning suhbat

Dostonning 15- bobida Iskandar tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Eronda to'rta sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylarning podsholari hukmronlik qilgan. Bu muddat ichida kim taxt surgan bo'ssa, ular ko'p mamlakatlarni zabt etgan, jahonga hukmronlik qilganlar. Qanchadan qancha xalqlarni mustamlaka qilgan bo'lsalar-da, ulaning qilgan ishlari shoh Iskandarning oz vaqt ichida dunyoda qilgan ishiga baravar kelmas edi.

Yuqorida to'rt sulolaning ikkinchisidan so'ng, ya'ni, kayoniylardan so'ng Iskandar maydonga chiqdi. Kayoniylarning so'nggi vakili shoh Doro edi. Bu paytda Rumu Rusda Faylaqus degan odam hukmdor edi. Nizomiy Faylaqus tarixini yaxshi bilar va u haqda tubandagicha bayon qiladi:

Faylaqusning zurriyoti yo'qligi sababli u Ollohdan tun-u kun farzand so'rardi. U kunlarning birida ovdan qaytayotganida vayronaga aylangan bir koshonani ko'rdi. Shohni beixtiyor chopqir oyi vayrona tomon boshladi. Vayronaga kirar ekan, bir homilador xotinning tug'ib yotganini ko'rdi. Lekin ayolning jismida jon yo'q edi. Uning oldida zor va zabun bo'lib yotgan chaqaloq yig'lab yotardi (u o'g'il edi). Faylaqus mahramlariga buyurib o'likni dafn ettirdi-da, chaqaloqni izzat- ehtirom bilan olib, unga mehribonchiliklar qilib parvarish qildi. Unga Iskandar deb nom qo'yib, o'ziga o'g'il qilib oldi. O'limi oldidan esa o'rniga valiahd qilib tayinladi.

Ba'zi tarixchilar bu haqda boshqa so'z ham yozganlar, Iskandarni Doroga nisbat berganlar ham bo'lgan. Go'yo Rum shohi, asalari o'z uyasini yasatganday, qizini zeb- ziynat bilan bezab, Doroga bergan emish. Ammo orada o'tgan bir ish

sababli, bularning murosallari buzilib , Doro u qizni otasinikiga uzatgan emish. Lekin to'y bo'lgan kechasi qizning bo'yida bo'lib qolgan emish.

Yana, bundan boshqa, "Fors tarixida" tubandagicha so'zlar bor:

Go'yo, dunyoda ikki Iskandar o'tgan bo'lib, ikkalasi ham o'z davrida jahon hukmroni bo'lgan ekan. Ulardan biri Doro bilan urushganu, ikkinchisi, ya'jujlarga qarshi sad- devor qurgan emish. Lekin dunyoning donosi bo'lmish Jomiy Iskandar qissasidan elni bahramand qilish niyatida , "Iskandar" dostonini yozdi. Elga haqiqiy ahvolni Jomiygina bayon qildi. Darhaqiqat, unga Iskandar ishi manzum, barcha holati yashirin emasdi.

Navoiy ham doston yozish uchun barcha tarix kitoblarini o'qib oxiri Jomiydan maslahat so'raydi.

Jomiy hazratlari : " 2 ta Iskandar bo'lgan",degan gapni aniq hujjatlar bilan rad etib: Iskandarning asl nasabini Nizomiy qanday ta'riflagan bo'lsa, donishmand Jomiy ham shunday tasdiqlaydi.U haqiqatdan ham Faylaqusning o'g'li bo'lib tarixchilarning bu haqdagi ixtiloflari to'g'ri emas.

Iskandar topdi malik Faylaqus,

Yasab mulkin andoqqi zebo arus.

Demak , Navoiy vayronada topilgan bola haqidagi afsona tarafdori bo'lgan .

Navoiyning masalaga bunday yondashishning sababi oldingi aqidalarga ko'ra faqat shoh, oliy tabaqadan shaxslargina yuksak insoniy xususiyatlariga ega bo'ladilar degan tushunchaga barham berish bo'lgan.

Navoiy ongli ravishda ,ataylab ana shu fikrga zid o'laroq ,eng oliy janob inson, odil insonparvar, xalqparvar shoh ,buyuk tadbirkor lashkarboshi, olim – faylasuf hakim va nabiylilik darajasiga ko'tarilgan Iskandar tarbiyasining tasvirini berib, Naqumohis (Arastuning otasi)ustoz sifatida uni tarbiyalaganini aytadi. Faylaqus vafot etish oldidan o'g'lini valiahd etib qoldiradi:

Anga toj ila taxt tushmay qabul

Bu andeshadin behad erdi malul.

U xalqni yig'ib o'z qarorini izhor qiladi. Navoiy ijodining bilimdoni A. P. Qayumovning fikricha shoir "Saddi Iskandariy" dostoniga bosh qahramon qilib rumlik fotih timsolini olgan. Asar yirik falsafiy- didaktik umumlashmadan iborat. Shoir bayon qilmoqchi bo'lgan barcha fikrlar ana shu markaziy obraz orqali bayon etiladi. Navoiy Iskandarning shohlik va donishmandlik faoliyatini tutashtirgan holda tasvirlaydi. Navoiy har bobning xotima qismida soqiy, mug'anniy va o'ziga murojaat qilib, axloqiy xulosalar chiqaradi. Shuning uchun "Saddi Iskandariy" ni "Iskandarnoma" lar orasidagi eng xarakterli nasihatnoma deyishga haqlimiz.

Nizomiy Iskandar timsolining izchil ravishda avval lashkarboshilik, keyin donishmand- faylasuf va payg'ambarlik faoliyatini tavsirlasa, Navoiyda lashkarboshilik va olim- donishmandlik faoliyati birgalikda beriladi. Navoiy o'z qahramoni xarakterini tarbiya va ijtimoiy sharoit shakllantirganini ko'rsatadi. Bu o'rinda, ayniqsa, ustoz Naqumohis, buyuk olim Arastuning roli katta.

Navoiy dostonida qahramon asar boshidanoq o'zini Nizomiy va Xusrav Dehlaviy qahramonlaridan o'zgacha tutadi. Agar avvalgi Iskandarlar Flipp vafotidan so'ng ikkilanmay ota taxtini egallasalar, Navoiy qahramoni katta majlis to'plab qo'yadi. U xalqdan kimning arz- dodi bo'lsa, shohni o'zi bilan teng ko'rib ahvolini aytishini so'raydi:

Ki, berdi manga dodgarlik Iloh,

Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,

Kelib ollima arzi hol aylasun,

O'z ahvolini qiylu qol aylasun!

Iskandarning fikrlari xalqning orzusi bilan hamohang edi, shuning uchun ham uni podshoh etib ko'taradilar.

Iskandar taxtga o'tirgach adolat mamlakatni boshqaradi. Xalqni 2 yillik xirojdan ozod etadi.

Navoiyning asosiy vazifasi mamlakat, xalqni idora etuvchi, uning mas'uliyatini ustiga olgan odam qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatish edi. Shoir

Iskandar timsoli orqali bosqinchilik siyosati, jahongirlikning be'mani ish ekanini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Navoiy asarining o'ziga xosligi va qimmatini ana shundadir. Navoiy urushni yovuzlik deb hisoblab rad etadi, ammo Arastu tilidan zolimlikni, xalqni ezuvchilarga qarshi urushni oqlaydi. Shoir o'z qahramonini faqat mazlumlarni ozod etuvchi, ezilganlarning himoyachisi sifatida tasvirlaydi, behuda qon to'kishlarni va o'lim jazosini qoralaydi.

Nekin o'z qoshingda erur noravo,

Ulusqa ana ko'rma also ravo.

Navoiy o'z qahramonining, aksiincha, boshqa podsholarga o'xshamasligi, adolatparvar ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, hind yurishini tasvirlar ekan, Navoiy o'z qahramonini hind xalqiga nisbatan rahmdil, mehribon, hatto Dehli aholisiga malol kelmasin deb, riy taklifini rad etuvchi etib tasvirlaydi.

Navoiy Iskandari yer yuzi va suv osti sirlarini o'rganib, olim-faylasuflar ta'limini olgach, avval avliyo, keyin nabiylikka erishadi, lekin bu sohada hech qanday faoliyat ko'rsatmaydi. Doston oxirida Navoiy Iskandar haqida:

Bilib xalq shohi muzaffar ani,

Hakimu valiyu payg'ambar ani.

-deydi. Navoiyning asosiy maqsadi payg'ambarlarning tenglashib bo'lmas timsolini yaratish emas, balki real hokim o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qanday xayrli ishlar qilishi, ijtimoiy foydali vazifalarni bajarishi mumkinligini ko'rsatish edi.

Y. Bertelsning aytishicha, agar Navoiy Iskandarning payg'ambarligini bo'rttirsa, asar nasihatnoma qimmatini yo'qotar edi.

Iskandar timsolini Navoiy valiy va nabiylar sifatida ochmasdan, uning insoniy xususiyatlarini yoritishga harakat qiladi. Bu o'rinda uning eng yaqinlari bo'lmish onasi va ikki xotini Ravshanak ham Mehrnozga bo'lgan munosabati xarakterli: onasi oldida o'g'illik burchini bajarolmaganiga o'kinib, vafoti tufayli onasining ko'p aziyat chekmasligiga harakat qilsa, har ikkala xotinlariga, ularning jamiyatda tutgan o'rniga qarab o'ziga xos muomala qiladi.

Navoiydek buyuk adib o'z qahramonini faqat ijobiy xususiyatlar, ideallar yig'indisi etib tasvirlashi mumkin emas edi. Agar shunday bo'lsa, besh asrdan buyon o'z mohiyatini yo'qotmay kelmagan bo'lar edi. Navoiy yaratgan Iskandar eradan oldingi IV asr Makedoniya podshosi emas, balki XV asrda yashashi mumkin bo'lgan, shoir orzu qilgan, ijobiy faoliyat ko'rsatgan va salbiy xususiylardan xoli bo'lmagan podshosi. Navoiy, ayniqsa, Iskandarning jahonni, suv usti va ostini egallashga qaratilgan faoliyatini oqlamaydi.

Bu andesha chun ko'nglin itti zabun,

Dimog'i yuzlandi biymu junun.

Yer yuzini egallagach, dengiz sirlarini ham bilish uchun uzoq safarga chiqadi. Shishadan sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi va ajoyibotlarni ko'radi. Ammo safardan qaytishda xastalanadi hamda tutingan onasi Bonuga o'g'illikni o'rniga qo'ya olmagani uchun uzr so'rab maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir- oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo'l bilan borayotgan, olamga shoh bo'lgandan ko'ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanini anglagan ulug' jahongirning iqronomasi edi:

Boshimg'a tushub harza andeshaye,

Dedim olam ochmoq erur peshaye...

Demon qilsam erdi o'g'ullik sanga,

Qabul aylasam erdi qulluk sanga.

Sanga aylabon xoki dargohlik,

Aning otin aytsam edi shohlik.

Asar, boshqa dostonlardan farqli ravishda, kattagina xotima bilan yakunlanadi. U 6 bobdan iborat bo'lib, "Saddi Iskandariy" dostonini tugallash bilan muayyan ma'noda "Xamsa" ga ham yakun yasaydi. Nihoyat, "Xamsa" ni yakunlaganini yozar ekan," Hayrat ul- abror" dostoni yozilishidan boshlab "Saddi Iskandariy" yakunlanguncha bo'lgan jarayonni birma-bir eslab o'tadi. Navoiy tong otib kech kirguncha el- yurt tashvishi bilan band bo'lgani holda salaflari uzoq muddatda yozgan "Xamsa" ni juda qisqa muddatda – ikki yilda

yakunlaganini , agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqt hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxriya tarzida bayon qiladi.

*Chekib xoma bu noma itmomig'a,
Yeturgaysen og'ozin anjomig'a.
Ki, aqli muhosib shitob aylasa ,
Deyilgan zamonin hisob aylasa.
Yig'ishtursa bo'lmas bori olti oy,
Ki, bo'ldung bu ra'nog'a suratnamoy.*

Navoiy o'z beshligi kitobxonlar tomonidan qanday baholanishini bilish uchun ustози Abdurahmon Jomiyning huzuriga boradi va “Xamsa” ni taqdim etadi. Jomiy asarni birma-bir varaqlab, shoirga lutf bilan munosabatda bo'ladi hamda bir qo'lini uning yelkasiga qo'yadi. Ustoz va pir Jomiyning qo'li yelkasiga tekkach, shoir bir lahza hushini yo'qotadi va tahayyul olamiga g'arq bo'ladi: Navoiy ajoyib bir gulistonda sayr qilib yurib bir guruh suhbatdoshlarni ko'rib qoladi. Ulardan biri shoir tomonga kelib o'zini fors-tojik shoiri Hasan Dehlaviy deb tanishtiradi va davradagilar Navoiyni ko'rmoqchiligini aytadi. Navoiy hayajon bilan davra ahliga yaqinlashadi. Hasan Dehlaviy ularga Navoiyni tanishtiradi. O'rtada Nizomiy Ganjaviy, uning ikki yonida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy , ularning atrofida o'tirganlar esa Firdavsiy, Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy va Anvariylar edi.

Davradagilar Navoiyni ko'rishlari bilan o'rinlaridan turdilar va bir qo'lidan Xusrav Dehlaviy, ikkinchi qo'lidan Abdurahmon Jomiy tutib Nizomiyning yoniga o'tqizadilar. Navoiy Nizomiyga ta'zim bajo keltirib, yoniga o'ltiradi. Nizomiy Navoiyning “Xamsa” siga yuksak baho beradi va Jomiydan shoir haqqiga dou o'qishini so'raydi...

Shu onda Navoiy tahayyul olamidan qaytib qarasa, Jomiy qo'lini uning yelkasidan olgan va unga qarab turgan ekan. Jomiy Navoiyni ulug' muddaoga yetishgani bilan qutlab, Tangriga shukrona keltirishga chorlaydi. Nihoyat,

Oллоhdan madad so'rab ibtido topgan "Xamsa " buyuk Yaratganga shukronalik bilan yakun topadi:

Navoiy, qilib Tengri koming ravo,

Sanga ro'zi etti ajoyib navo.

Uzot Tengri shukri navosiga til,

Navo ortuq istar ersang shukr qil!

Xulosa o'rnida quyidagilarni sanab otishimiz mumkin:

1. Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" va Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari deyarli bir davrda, ya'ni 1485-yilda yaratilgan.
2. Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni hajman ancha yirik bolib 7215 baytdan iborat. Bu Jomiy dostoni bilan taqqoslaganda 3 baravar katta demakdir.
3. Abdurahmon Jomiy o'z dostonida Iskandarning jahongirlikiga emas, balki uning donishmandligiga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa, Alisher Navoiy esa adolatli shoh haqidagi orzularini Iskandar timsolida gavdalantiradi.

II. Bob. Dostonlardagi hikoyatlarning mushtarak va farqli jihatlar

2.1. G'oyaviy jihatdan uyg'un, voqealar rivojida farq qiluvchi hikoyatlar

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida XV asr Hirot madaniy hayotining ko'zga ko'ringan yirik vakillari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy edilar. Bu ikki ijodkor nafaqat turmush hayotda, balki badiiy ijod va ilmiy faoliyatning ko'p qirralarida o'zaro hamfikir va hamkor bo'lganlar. Navoiy Jomiyning nihoyatda e'zozlagan va o'zining ustoz sifatida ko'p o'rinlarda e'tirof etgan. Ularning yaqinligini shu jabhalarda ko'rish mumkinki, Navoiy asarlarining birinchi kitobxonini Jomiy bo'lgan. O'z navbatida Jomiy ham do'stining cheksiz iste'dodini e'zozlar, uning do'stligini qadrlar edi. Ularning deyarli bir davrda yashaganlari, shuningdek, yaqin aloqada bo'lganliklari ta'siri ular yozgan dostonlarning ko'pgina o'rinlarida ham ko'zga tashlanadi.

“Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandar” dostonlari voqealar tizmasi (sujet) va tuzilmasi (kompozitsiyasi) jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Dostonlardagi farqli jihatlar, asosan, asarning asosiy qismida yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy dostonida hikoyatlar Iskandar voqeasi, nazariy masala qismlaridan keyin kelsa, Jomiy dostonida nazariy masala qismi bo'lmaganligi uchun to'g'ridan to'g'ri hikoyatlar Iskandar voqeasidan keyin keltirilgan.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bu quyidagicha holat kash etishini ko'rish mumkin:

1. Iskandar voqeasi
2. Nazariy masala
3. Hikoyat
4. Hikmat

Abdurahmon Jomiyda esa:

1. Iskandar voqeasi
2. Hikoyat
3. Xiradnoma

Bu holat jadvalda quyidagi shaklda namoyon bo'ladi:

“Saddi Iskandariy”	“Xiradnomayi Iskandariy”
Iskandar voqeasi	Iskandar voqeasi
Nazariy masala	-
Hikoyat	Hikoyat
Hikmat	Xiradnoma

Dostonlarning hikoyatlarni sujet nuqtai nazaridan shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Bir-biriga g'oya va mazmun jihatidan to'la mos keladigan hikoyatlar
2. Mazmun jihatdan qisman mos keladigan hikoyatlar
3. Yangi sujetlardan tarkib topgan hikoyatlar

Bizga ma'lumki, hikoyatlar “ Iskandar voqeasi”ga mos bo'lishi kerak, ya'ni bo'lib o'tgan voqealarga qiyosan ibrat tarzida hikoyatlar keltiriladi.

Navoiy dostonidagi “Iskandar bilan gadolik yo'lini tutgan podsho” hikoyati bilan Jomiy asaridagi “Iskandarning toj-u taxtdan qochib yurgan shahzoda bilan gado uchrashgani” hikoyati g'oya va mazmun jihatdan to'la o'xshash hikoyatlar sirasiga kiradi.

Hikoyatlarning sujet tizimi, izchilligi, undagi qahramonlarning ruhiyati o'zaro bir-biriga o'xshaydi. Gado tasviri, uning Iskandarga aytgan so'zlari-yu qo'ygan talablari har ikkala dostonida ham juda ta'sirli va chiroyli tarzda ifodalangan. Faqat hikoyatlarning keltirilish o'rinlari farqlanadi. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi hikoyat asarning boshida Faylaqusning vafoti va Iskandarning taxtni egallash munosabati bilan yozilgan. Hikoyatda keltirilishicha, Iskandar ota taxtni egallagach, mamlakatni adolat yo'li bilan boshqaradi. U ko'pgina hududlarni mute' qilgan bo'lsa-da, yurishlarini davom ettirarverardi. Harbiy safarlari davomida qaysi mamlakatni egallasa, u yerni o'sha yurtning munosib kishisiga topshirar edi.

Iskandarning bu siyosatidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Navoiy tasavvuridagi shoh tarixda tasvirlangan hukmdor emas, balki adolatparvar, xalq bilan ish ko'radigan odil shohdir.

Mag'rib yerlarini fath etganida, uning shohi dushmanlik bilan urush e'lon qiladi. Urush so'ngida shohning jang paytida halok bo'lgani aniqlanadi. Iskandar kimni shoh qilib tayinlashni xalq bilan maslahtlashadi. Raiyat Iskandarga shohlik tojini o'z ixtiyori bilan tashlab boshqa odamlarga qo'shilmay, eski qabrlarni makon qilib olgan gado haqida xabar beradi.

Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,

Bo'lub tark toji bilan baxtiyor ¹.

Iskandarning farmoni bilan gado saroyga olib kelinadi. U bosh yalang, oyoq yalang dunyo tashvishlariga etak silkib, ikki qo'lida ikki suyak bilan kirib keladi:

Yalang edi boshu, ayog' yalang,

Yaqa chokidin ko'ksi dog'i yalang.

Jahon shug'li gardiga silkib etak,

Tutub iki ilgida iki so'ngak ².

¹ Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. –T.: G'afur G'ulom, 2006. –B.73

²Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – T.: G'afur G'ulom, 2006. –B.74

Iskandar ushbu holatdan hayron qolib buning sababini so'raydi. Gado shu tarzda javob beradi:

*Dedi: “ Go'rlardin qilurda guzar,
Necha bu so'ngaklarga soldim nazar.
Zamiring'a lekin nihon qoldi bu
Ki shahning qayudur, gadoning qayu ?
Chu o'lganda birdur bu ikki mato',
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo'”? ¹*

Ya'ni: qabristondan o'tayotganimda har safar shu suyaklarga qarayman, lekin qaysi biri shohniki-yu, qaysi biri gadoniki farqlay olmayman. Bular o'lganda bir xil ekan, nimaga tirikligida nizo qilishadi?

Iskandarga gadoning so'zlari xush yoqib uni himmati baland donishmand sifatida ulug'laydi va shohlikni taklif etadi. Gado Iskandarga quyidagi to'rt shartni qo'yadi:

- 1) intihosi yo'q abadiy hayot
- 2) qarilik bilmaydigan yoshlik
- 3) kambag'allik bilmas boylik
- 4) hech bir g'ami yo'q shodlik

Iskandar hayratdan lol qolib, uyatdan boshi quyi egiladi.

Demak, himmati baland gado uchun hatto shohlik martabasi ham pastdir.

Yuqorida ko'rib o'tganimiz “ Iskandar va gado” hikoyati Navoiy dostonidagi dastlabki hikoya hisoblansa, “Xiradnomayi Iskandar” da asarning so'nggi qismlarida keltirilgan.

“Iskandarning toju taxtdan qochib yurgan shahzoda bilan uchrashgani” hikoyati Bu hikoyat Iskandarning dengiz safariga chiqishidan oldin, pokizalar shahriga yetganidan so'ng keltirilgan. Iskandar jahonni aylanib chiqib bir shaharga yetib boradi va bu yerni Jomiy quyidagicha tasvirlaydi:

¹ O'sha yerda

*“ Na z- eshon tavangar kase , ne faqir,
Bar eshon na sulton kase, na amir,
Barobar ba ham qisamti moloshon,
Muvofiq’ ba ham surati halashon.”¹*

O’zbek tilidagi tarjimasi:

*“Na boyi bor edi, na gado , faqir,
Na birov sultoni, na birov, amir,
Barobar barchasin qismati, moli,
Muvofiq barchasini holi-ahvoli.”²*

Mazmuni:

Iskandar kelgan bu shaharda na boy, na gado bor edi. Ular hamma bir xil sharoitda bir-birovining ahvolidan xabardor bo’lib yashar edilar. Qizig’i ularning uylari oldida go’r qazilgan ekan. Buning sababini so’raganida o’limni yodiga solib turish uchun ,ya’ni dunyoning o’tkinchiligini eslab yurish uchun ekanligi ma’lum bo’ladi.

Yuqoridagi voqeaga monand ravishda hikoya keltiriladi.

Iskandar yurishlari davomida Sinon shahrini egallaydi. U biror shohlar avlodiga mansub bo’lgan, mamlakatni adolat bilan boshqara oladigan donishmandni shoh qilib ortga qaytmoqchi edi. Raiyatga maslahat soladi, xalq podsholikdan qo’lini yuvib, qabristoni o’ziga makon qilgan bir darvesh haqida ma’lumot beradi.

*Dedilar: “ Biri bor , hotamlik bilan
Podsholik naqtidan qo’lin yuvgan
Qabriston ichida joy qilib muqim
Lachadan fanoni o’qiydi doim.”¹*

¹.Жомий Абдурахмон. Интихоб аз асарҳо. -Тоҷитистон: сталинобод, 1956.- Б. 108

².Жомий Абдурахмон. Хирадномаи Искандар.-Тошкент, 1978.-Б. 89

Iskandar darveshning ta'rifini eshitgach, saroyga olib kelishlarini buyurdi. Farmonidan bir necha zamon o'tgach, gado qo'lida uch-to'rt ustixon suyak bilan kirib keldi.

Iskandar buning sababini so'radi.

“Bigufto ki: “ Kardam dar in dashtgoh.

Bu guru gadoyonu shohon nigoh,

Nashud ustuxonhoi shohan chudo.

Bu chashmi man-az ustixoni gado....”²

O'zbek tilidagi tarjimasi:

Dedi: “Bu dasht uzra dilim g'ashladim,

Shoh ,gado go'riga nigoh tashladim.

Mening nazarimda shoh va gado

Ustixonlarda farq yo'q-ku aslo.

Oxiri ikkisi bo'larkan yakrang,

Nechun boshlanishda qilishadi jang?”³

Gadoning so'zlari, dunyoqarashi, fikirlashiga Iskandar bilan birga butun saroy ahli lol qoladi.

-Iskandar dedi: “Kel, ey donishmand, seni shohlik taxtiga, shohlik baxtiga yetkazay.”

-Gadoning javobi: “Mening himmatim bunchalik past emas, qimmatim shohlikdan ustunroqdir.”

Darvesh Iskandarning taklifiga quyidagi to'rt orzu-havasdan uni forig' qilsagina rozi bo'lishini aytadi.

¹. Жомий Абдурахмон. Хирадномайи Искандар. – Т. 1978. –Б.93. Таржимон: Шомухамедов Ш

². Жомий Абдурахмон. Интихоб аз асарҳо. - Тоҷикистон: Сталинобод, 1956- Б. 111

³. Ўша ерда

- 1) Yakson bo'lmas abadiy hayot.
- 2) Xazon bo'lmas yoshlik bahori.
- 3) G'am soya solmaydigan shodlik.
- 4) Kamaymas boylik.

Isandar: Bu shartlarni bajarishga banda ojizdir, faqat parvardigorgina bu mushkulni yecha oladi, deydi. Shunda darvesh saroni tark etadi.

Demak, kimniki, mol-dunyosi oz bo'lsa, bu dunyodan ko'nglini osongina uzib keta oladi. Oxiratda inson uchun zeb-u ziynatning nafini topmaydi. Qilgan yaxshi amallar, mushkullarini oson qilishi mumkin. Zero, Olloh oldida shoh ham gado ham tengdir.

Yuqorida Jomiy va Navoiy dostonlaridagi "Iskandar va gado" hikoyatining mazmuni bilan tanishib chiqdik. Endi mushtarak jihatlarni aytib o'tamiz.

Iskandarga qaysi mamlakat podsholari mute' bo'lgan bo'lsa, o'sha shohlarni yana o'z yurtiga shoh, eliga boshliq qilib tayinlash holatlari aynan bir xildir. Shuningdek, xalqdan maslahat so'rashi va gadoning daragini eshitishi-yu, uning ta'rifi, saroyga kirib kelish holatlarigacha o'xshaydi. Shu bilan birga uning Iskandarga aytgan so'zlari ham g'oyaviy va mazmun jihatdan o'xshash hamda badiiy jihatdan mukammaldir.

Haqli ravishda, shu o'rinda savol tug'iladi: dostonda "Iskandar va gado" hikoyati nima uchun keltirilgan?

"Saddi Iskandariy" da bu hikoyat shoh endigina hokimiyatni egallashi bilan keltirilgan. Bizga ma'lumki, Iskandar jahongir bo'lgan, dunyoning katta qismini egallagan shohdir. Navoiyning bu hikoyatni keltirishdan maqsadi Iskandarni ogoh qilish, dunyoning ketidan quvmay, adolatni bayroq qilib mamlakatning farovonligini ta'minlashga chorlashdir.

Hikoyadagi eng jiddiy va ta'sirli o'rin Gado qo'ygan to'rt shartdir.

- 1) Intihosi yo'q abadiy hayot – tug'ilish bor ekan uning nihoyasi ham mavjud. Hech kim yerga bog'lanib qolmagan.

2) Xazon bo'lmas yoshlik bahori - Umr daryodek oqib o'tib ketaveradi. Fasllarning bahori bo'lgandek, uning qishi ham keladi eshik qoqib. Shu o'rinda Navoiyning bir baytini keltirish mumkin.

*Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.*

(Agar bog'bon bog'ining atrofini tikan bilan o'rab chiqsa ham, kuz fasli - xazon fasli baribir ham o'z hukmini o'tkazadi.)

3) G'am soya solmayigan shodlik- shu o'rinda oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u naqlini eslashimizning o'zi kifoya qiladi.

4) Tuganmas boylik – “ abadiy”, “mangu “ so'zlari hech bir narsaga xos emas.

Demak, Iskandar butun dunyoni egallashi mumkin, lekin Ollohning sinovlari oldida ojiz.

Shoh ham, gado ham uning qarshisida ilojsiz banda. Ularning har ikkisi ham tuproqdan yaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jomiy va Navoiy dostonlaridagi “Iskandar va gado” hikoyati syujet tizimi va kompozitsiya jihatidan to'la mosdir. Shuningdek, hikoyat keltirishning sababi ham, undagi obrazlarning harakati, ruhiyati, portreti ham o'zaro mushtarakdir.

“Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandar” dostonlarini o'qishimiz davomida to'la o'xshash hikoyatlar bilan bir qatorda farqlanuvchi hikoyatlar ham borligini kuzatamiz. G'oyaviy jihatda o'xshash, lekin voqealar rivojida farq qiluvchi hikoyatlar ham mavjud. Hikoyatlarda o'quvchiga yetkazib bermoqchi bo'lgan g'oya va ibrat o'zaro bir-biriga muvofiq. Lekin hikoyatlar nomi, qahramonlar ruhiyati, tashqi ko'rinishi, voqealar rivoji bir-biridan farqlanadi.

Jomiy hikoyatlaridagi asosiy qahramonlar hayvonlardir. Jomiy kitobxonlarga saboq berishda majoziy usuldan ko'proq foydalanadi. Inson hayotida ro'y beradigan voqealarni hayvonlar vositasida ko'rsatib beradi. Navoiy esa to'g'ridan to'g'ri insonlar yordamida xalqni ogohlikka da'vat etadi.

Bunday hikoyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

“Saddi Iskandariy” dagi “Ardasher”, “Baliqlar”, “Mashriqdan ganj topgan kishi” hikoyatlari;

“Xiradnomayi Iskandar” da esa “Kalxat va qurbaqa” qissasi; “Tulki maslahatiga kiib suvga sho'ng'igan tuya”, “Hiyla bilan sodda baliqni qo'lga tushirgan baliqchi qush”, “Kalla nonini yeb turib , nonim kichik ishtaham katta“ deb yig'lagan bola” hikoyatlari:

“Saddi Iskandariy” da	“Xiradnomayi Iskandar” da
1. “Ardasher” hikoyati o'tkir aqli va qat'iy irodasi tufayli o'zidan kuchli bo'lgan dushmani bilan sulh tuzishga muvaffaq bo'lgan Ardasher haqida.	1. “Kalxat va qurbaqa” qissasida Ishbilarmonlik va topqirligi sababli kalxat changalidan osongina qutilgan qurbaqa to'g'risida
2. “Baliqlar” hikoyati; Baliqlarning nodonlikari tufayli nahanga yem bo'lgani.	2. “Tulki maslahatiga kirib suvga sho'ng'igan tuya” , “Hiyla bilan soda baliqni qo'lga tushirgan baliqchi qush” hikoyatlarida: Qahramonlarning Kaltabinliklari tufayli hayotlarining xavfga qo'yganliklari.
3. “Mashriqdan ganj topgan kishi” hikoyati; qanoatsizlik mavzusi yetakchilik qiladi.	3. “Kalla nonini yeb turib , nonim kichik ishtaham katta “ , deb yig'lagan bola” hikoyati: Ochko'zlik mavzusi yetakchilik qiladi.

Endi birma- bir hikoyatlardagi o'xshash jihatlarni ko'rib o'tamiz.

“Saddi Iskandariy” dagi **“Ardasher” hikoyati** Dostonning asosiy qismini shartli ravishda to'rt qismga (Iskandar voqeasi , nazariy qism, hikoyat, hikmat) bo'lgan edik. Keltiriladigan hikoyatlar bevosita Iskandar voqeasiga monand bo'lishi lozim. “Ardasher” hikoyati Iskandarning Chinxoqonligiga yurish safaridan keyin keltirilgan. Hikoyating qisqacha mazmuni quyidagicha:

Podsholar orasida Ardasher ham dono-yu , ham qat'iy irodali bo'lib chiqadi. Chunonchi, u Ardavon bilan yovlashib qolib, ikki orada urush xavfi paydo bo'ladi. Ardavonning kuchi, qo'shni Ardasherdan ko'pligi ma'lum bo'lib qoldi. Ortga qaytay desa oriyat yo'l qo'ymas, yurish boshlashga zaifligidan tashvishga tushardi. Dushman esa “yarashaylik” taklifini rad etadi.

Ardasher qo'shini orasida bir sotqin bo'lib, uning ishi yashirin va dushmanga xat-xabar jo'natib turish edi. Shoh budan xabar topgan bo'lsa-da arqoni uzun tashlab qo'ygan edi.

Dushman yaqinlashib qolgandi shu paytda Ardasherning miyasiga ajoyib bir fikr kelib, davlat arkonlarini xilvat joyga chaqirib, maxfiy gaplarni bayon qiladi: “Hech kim vahimaga tushib, qochishni ixtiyor qimasin. Hozirgina menga haq taolodan inoyat yetishdi, shuning uchun ham ko'ngil sirlarimni bayon qildim, lekin zinhor-bazinhor boshqalarga oshkor qilolmaysizlar” - dedi.

Ularning hammasi sir saqlashga so'z berganidan so'ng shod-u xuramlilik bilan mana bu dostoni boshladi;

Dushman tomondagi bir qancha pahlavonlar Ardavonga qora niyatda ekanlar. Yuborgan xatlariga ko'ra bizning vodiymizga kelganda jang mahali Ardavoni boshini menga olib kelib berarmish”

Bu gaplarni eshitgach, saroy ahli xotirjam bo'ldi. Anjuman ishtirokchilari orasida haligi sotqin ham bor edi, maxfiy suhbat

mazmunini darrov Ardavonga yozib jo'natdi. Zo'r dushman bu so'zni eshitgach, yuragiga qattiq qo'rquv tushib, hech kim bilan maslahat qilmay, o'z ixtiyori bilan yarashishga rozilik berdi.

Ardasher yuqoridagi foydali tadbirni o'ylab topganligi uchun iqboli baland kelib, zo'r dushmandan o'zining donoligi bilan qutildi va vodiya osoyishtalikni taminlab murod-maqsadiga yetdi.

“Xiradnomayi Iskandar” da esa yuqoridagi hikoyatga mazmunan mushtarak bo'lgan **“Kalxat va qurbaqa” qissasi** keltirib o'tilgan. Va u quyidagicha:

Bir Kalxat bor edi u ko'p abjir edi, ammo qarigach holdan qolib hatto uchishga ham madorsiz bo'lib, ochlikdan sullayib ko'lmak bo'yida yotar edi. Kunlardan bir kun qo'lga bir qurbaqa tushdi. Qurbaqa bechora faryod ko'tardi:

“Shodligim motamga aylandi, voy dod! Endi o'ldirmoqa shoshilma, bir luqma suyak bo'lsam, sen meni yeb oshqozoningga jabr qilib nima foyda topasan? Agar meni changalingdan ozod qilishga va'da bersang seni eng zo'r baliqlar bilan mehmon qilaman deya baliqlar ta'rifidan so'z boshladi:

Toza oqar suvda topar parvarish

Turfa noz –nematlar ularga yemish.

Na ustixonni bor va na po'sti bor,

Boshdan dumigacha yodgor qo'shdor”.

Kalxat bu so'zlardan so'lagi oqib, ovqat yeyish tilagi yodidan chiqdi, ont ichmoqchi bo'lib og'zini ochgan mahal baqa lip etib sakrab ketdi-yu, bir zumda ko'lmak suv tagiga yetdi. Kalxat harchand urinmasin baqaga yetolmadi. Sullayganicha suvga qarab qoldi.

To'g'rilikni bayrog'i alifdir (1), lekin u harf arabchada , “alif” o'qilsa birni , “alf ” o'qilsa mingni bildiradi. Modomoki bir to'g'ri chiziq mingga yurar ekan, kishi to'g'riligining bahosi bormikan? Bir odamning fikr yo'nalishi tog'ri bo'lsa , dushman ko'pligidan qanday xavfi bo'lsin?

Bir yaxshi fikr, yomon kunda ming jangavor dushmanning daf etilishiga sabab bo'lishi; haddan ziyoda ko'p dushman birgina donolik bilan aytilgan, fikrning ovozidan qochib ketishi mumkin. Agar birov aql bilan, puxta o'ylab tuzoq qo'ymasa, havoda uchib yurgan qushni hamrom qilib o'z tuzog'iga ilintira olmaydi.

So'z ayladi kishini judo hayvondin,

Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

Yoki:

So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,

Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.

Yuqorida dostonlardagi hikoyatlar bilan tanihib chiqdik. Ardasher hikoyti o'tkir aqli, qat'iy irodasi tufayli o'zidan o'n chandon kuchli raqibi bilan sulh tuzishga muvaffaq bo'lgan shoh haqida.

“Kalxat va qurbaqa”qissasida ishbilarmonligi bilan va topqirligi sababi bilan kalxat changalidan osongina qutilgan qurbaqa to'g'risida.

Ko'rib turganimizdek, ikki hikoyatda ham qahramonlarning ishbilarmonligi, abjirligi, o'tkir fikrga ega ekanligi tufayli mushkulari oson bo'ladi.

Keyingi o'zaro o'xshash hikoyatlar “Baliqlar” (“Saddi Iskandariy”) va “Tulki maslahatiga kirib suvga sho'ng'igan tuya”, “Hiyla yo'li bilan sodda baliqni qo'lga tushirgan baliqchi “, (“Xiradnomayi Iskandar”) hikoyatlaridir.

Suv issib, dengiz girdobiga borib qolgan va o'lim nahangiga yem bo'lgach, suvdan ayrilganlarni bilgan baliqlar hikoyati.

Dengizda bir guruh baliqlar bor ediki, ularning suvda bo'lganlari holida, doim qanday qilib bo'lsa ham suv topishning xayolini, surar edilar. Ular doimo suvni havas qilar, uni axtarib yuar , “suv deganlari nima ekan? “ - deb o'ylar edilar. Suvning rangi, ta'mi, yurish - turishi qanaqa bo'lishga qiziqardilar. Ularning orasida bir betoqat , sabrsiz baliq bor edi. U kunlardan bir kuni shunay dedi.

— Eshitishimcha, falon zo'r girdobda qari-qartang bir nahang bo'lib, u dengiz ostida ham , ustida sayr qilib yurar emish. Ehtimol , o'sha nahang suvdan darak topgan va ko'p ajoyib maxfiy sirlarni bilib olgan bo'lsa ! - dedi. Mana shunday xomxayol fikr bilan baliqlar suvga yetishish orzusida, hech narsani ham o'lamay shoshilganча o'sha tomonga qarab azm etdilar. Ular girdobga yaqinlashdilar.

Bu girdob emas, aylanib yuruvchi osmonday cho'ng girdob edi. Baliqlar jo'shib yotgan suvga yaqinlashganlarida girdob bularning hammasini birma-bir o'z bag'riga oldi. Dahshatli girdob bularni xuddi bo'ron tol yaproqlarini to'zg'itgandek to'zg'itib yubordi. Shu payt bahaybat nahang paydo bo'lib, bularning o'z qorniga birma-bir jamladi. Shunda axmoq baliqlar haqiqatdan endi suvdan ajralganliklarini, avval suvda ekanliklarini, endi quruqlikka chiqib qolganliklarini his etdilar. Ular qancha pushaymon bo'lmasinlar, nahang me'dasining o'ti baliqlarni yondirar edi.

Baliqlar ham ko'pgina insonlar kabi g'aflatda qoldilar, ularda ko'pgina xazina bor-u, ammo uni bilishga tablari nodonlik qiladi. Butun dunyodagi xazina uning o'zida ko'milib yotadi-yu, bilmasligi tufayli buni sezmaydi. Har

bir qiziq ko'ringan narsalarning orqasidan tinmay yuguradi, bilmaydiki, hamma ajoyibotlar uning o'zida berkitilgan.

“Tulki maslahatiga kirib suvga sho'ng'igan tuya” hikoyati.

O'rgimchak kabi zaif bir tuya bor edi. Yukning og'irligidan arang yurar edi. Bir kuni ayyor tulkiga uchrab qoldi. Tulki dedi: “qanoat bobida hech kim senga teng kelolmaydi, oz ovqat yeb ko'p ishlaydigan seni buncha kim xor aylaydi?”

Tuya bir toshbag'irning qo'liga tushib qolganini, fil ham ko'tara olmaydigan tuzni qoplab ortishini buning ustiga, tayoq bilan kaltaklashini aytib berdi.

Tulki ayyorlik qilib unga maslahat berdi. Yo'lingda oqar suv bor , tuz konidan chiqib kechuvdan o'tsang tuzlar erib yuking yengil bo'ladi. Bu so'z tuyaga ham yoqib tulki aytganlarini qilgandi, bu hiyladan baqqol xabar topib tuz o'rniga jun bilan namat ortdi. Bundan bexabar kechuvdan o'tgandi tuyaning biri ming bo'ldi.

“Hiyla yo'li bilan sodda baliqni qo'lga tushirgan baliqchi “ hikoyati.

O'rmonda baliq ovlab kun ko'radigan ovchi qush bo'lib , vaqt o'tib kuch- quvvatdan qolgan edi. Daryodagi guruh-guruh baliqlarga ko'rib, yuragi ezilib, qorni och holatda qarab turgandi. Bir baliq nega qimirlamayotganligi sababini ovchi qushdan so'radi. Shunda ovchi qush qilgan ishlaridan afsusdaligini-yu, bir dasta giyoh bilan ham kun ko'rishga tayyorligini aytadi. Baliqni suhbatga chorlaydi . Agar ishonmasang anavi giyoh bilan tumshug'imni bog'la. Sodda baliq qo'rquvni unutib bir sapchigan edi shu zahoti qush uni yutib yubordi.

Oldingi sahifalarda ham takrorlaganimizdek , Navoiy va Jomiy hayvonlar misolida insonlarga o'rnak ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ollohning butun dunyoni yartishdan maqsadi - inson edi.

— *So'z ayladi kishini judo hayvondan*

— *Balki, guhori sharifroq yo'q ondin.*

Inson hamma narsani idrok etish qobiliyati bilan butun maxluqotdan ajralib turadi. Hayvonlar bunday fazilatlardan mahrumdirlar, Zero, inson barcha maxluqotlaring sarvari, gultojidir. Kerakli bilimlarni o'z o'rnida qo'llay olmasa, uni hayvondan nima farqi qoladi? Shunday odamlar borki, o'sha boylik o'zida bo'la turib boshqa joydan izlaydi. Xuddi “Baliqlar” hikoyatidagi nodon baliqlar singari. Yana shunday insonlar borki, kim qayerga boshlasa , o'sha tomonga qarab ketaveradi, o'zining mutaql fikri yo'q. Olloh bergan oliy e'mat aqlini ishlatagisi kelmaydi. Yoxud shunchalik beparvo, kaltabilik, qiladigan ishining natijasini anglab yetmaydi. Zero, birovlarining dilida ne muddaolari borligini bilish, bu haqida bosh qotirish inson uchun nihoyatda noyob va ulug' fazilatdir. Hikoyatlardagi qahramonlar ham biroz mushohada qilib ko'rganlarida edi boshlariga bunday kulfatlar tushmagan bo'lar edi.

Demak, yuqoridagi qissalardan hissa shuki, baliqlar nodonliklari tufayli nahangga yem bo'lgan bo'lsa, Jomiy dostonidagi qahramonlar ham aqlsizliklari va beparvolik lari sababli hayotlarini jiddiy xavfga qo'yganlar.

Dostondagi keyingi o'xshash hikoyatlar **“Mashriqdan ganj topgan kishi”** (**“ Saddi Iskandariy”**) , . **“Kalla nonini yeb turib , “ nonim kichik ishtaham katta “** (**“Xiradnomayi Iskandariy”**) , deb yig'lagan bola**“ hikoyatlari.**

Mashriqdan ganj topgan kishi hikoyatikim, u yerda Mag'rib xazinasini haqida xatni o'qigach, quyoshdek boshdan qadam qilib, mashriqdan marg'ibgacha

bordi va u Mag'rib zarini topgach, quyosh g'arbga botgandek o'zi ham yerga botdi.

Bir kishi Sharqda boy va nodir bir xazina topdi. Xazinaning eshigida esa tubandagicha bir qiziq xat bor edi: “ Kimki bu xazinani aniq toparkan, agar Marg'ib diyoriga borib, falon yerlarini qarasa, bundan ham katta ganj bor, u yerda shu xatni olib borgan odam bu mukofotini ham olgusidir “.

Bu xatni o'qigach xomtama bo'lib bechora : “ Ikkala xazinani ham ola qolay“, -deb shoshib-pishib Mag'rib tomonga yo'l oladi. U necha yillar sarson sargardon bo'lib, daryo va daxshtlarni kezib, boshidan qanchadan qancha uqubatlarni kechirib, istagan yeriga yetib , izlagan xazinasini topadi. Shu paytda birdan boshiga ajal yetadi. Shunday qilib, u bechora bu xazinadan bahra ham topolmay, mashaqqat cheka-cheka jonidan ham judo bo'ldi. Bu hikoyada qanoatsizlik va uning oqibati haqida fikr yuritilgan. Navoiyning “ Hayrat ul- abror” (Yaxshi kishining hayratlanishi) dostonida ham qanoat haqida bob mavjud. (34-bob, 7-maqolat)

Inson har doim qanoatni o'ziga sheva qilib olishi lozim. Kimki xomtama bo'lsa, u yoqda oxiri azobdadir. Kulbada qanoat qilib o'tirgan darvesh ta'magir podshodan afzaldir. Ta'ma qilgan kishi gadodir. Hech narsaga ehtiyoji bo'lmagan shoh kabidir. Qushlarning ichida Anqo shoh hisoblanadi. Hadhud ovqatga o'ch bo'lgani uchun boshida toji bo'lsa-da elchidir.

Kimki muhtoj bo'lmasa shohdir. Kimki toj kiygani uchun shoh deydigan bo'lsa , muhtojni ham shoh deb bil.

Butun bir osmon bitta non (quyosh) bilan kun ko'radi , ba'zi insonlar esa dunyo xazinasini egalab turib ham, boyligim kam deb, tuni bilan uxlamay chiqadilar. Hikoyadagi qahramon xuddi cho'lda izlab-izlab buloq topib, suvni spol idishda ichmay, oltin qadah topishga tushgani, uni topdim deganda suvsizlikdan nobut bo'lgan odamga o'xshaydi.

Xuddi shunday mazmundagi hikoyat “Xiradnomayi Iskandar”da ham keladi. Katta noni yeb turib, “nonim kichik , ishtaham katta” , deb yig’lagan bola hikoyati.

Bag’dod shahrida ziyrak, aqlli bir kishi bor edi. Bir kuni qo’lida to’lin oyday keladigan non ushlab olgan bolani uchratadi. Bola nonni tishlab yer edi va tinimsiz yig’lardi. Haligi ziyrak kishi boladan buni sababini so’ragan edi. Bola shunday dedi:

Och bolaman, ishtaham karnay,

Ishtaham katta-yu kichikdir nonim.

Qanday to’yaman, deb qiynalar jonim.

Non tez tugar deya bo’laman xunob,

Achiq-achiq yig’lab, chekaman azob.

Yuqoridagi hikoyatda ham ochko’zlik, sabrsizlik, mavzusi yetakchilik qiladi. Yoshligidan shu darajada ochofat, ko’ziochlik qilsa, katta bo’lganida undan yaxshilik kutib bo’lmaydi. Inson har qanday qiyinchilik, mashaqqatni sabr bilan yengishi, aqliga quloq solishi lozim. Darrov kimdandir yordam so’rashi emas, boriga shukr qilib o’zi buning chorasini izlamog’i lozim.

Farishtalar insonlardan bir necha jihatlari bilan ajralib turadilar. Shulardan eng muhimi ularga nafs berilmagan. Shuning uchun ham malaklar gunoh qila olmaydilar. Yuqoridagi hikoyatlardagi qahramonlarning ochko’zligi, qanoatsizligining asosida ham nafs yotadi. Ular nafslarini jilovlab olmaganliklari uchun ham shu ahvolga tushib qoladilar.

Tasavvuf ta’limotida nafsning tarbiyasi tarifi haqida juda ko’p bahs yuritiladi. Insoning eng katta dushmani ham nafsdir. Nafsga qarshi mujodala komil inson bo’lish yo’lidagi kurashdir.

Hazrat Alisher Navoiy yozadilar:

Insonga zarur komil maslub,

Andindagi dardu hol matlub,

Yoki hazratning quyidagi jumalari ham o'rinlidir:

Nafs itin qilsang za'bun,

Olamda yo'q sendek shujo'.

Nafs kishining yomon xususiyatlariga berilgan nomdir. Bularning kuchayishi insoning qadr - e'tiborini tushiradi, uni jar yoqasiga boshlab boradi. Shu o'rinda fikrimizning dalili sifatida Abu Ali Ibn Sinoning "Tayr" qissasini eslasak kifoya. Tasavvufiy ruhida yozilgan bu asarda ham qushlar nafslari tufayli tuzoqqa ilinadilar. Tasavvfning vatani ko'ngildir. Asardagi tayr (qushlar) ko'ngil ramzidir. Ko'ngil nafsning gapiga kirib tuzoqqa tushdi. Aslida qalb- eng ulug' tuyg'ular makoni.

Tasavvufda ,eng avvlo, ko'ngil pokligi , ya'ni qalbni nafsdan tozalash muhim. Aql orqali ko'ngilni boshqarish mushkul, dastlab nafs tarbiyalash lozim. Aql bilan ko'ngil maslahatlashsa, nafs tarbiyalanadi. Anglab olingan narsa qalb bilan tushinilsa, uzoqroq yashaydi. Zero, qalb podsho, aql vazirdir.

Islomda ikki xil jihod bor: birinchisi jihodi asqar, ikkinchisi jihodi akbar.

Jihodi asqar (kichik jihod) – mamlakatlar, davlatlar o'rtasidagi yuz yillab davom etadigan urushlar sirasiga kiradi.

Jihodi akbar (katta jihod) - solihning o'z nafs bilan qilgan urushi, qalbni boshqarishdir.

Demak, nafs tarbiyasi juda mushkul ish. Mashhur adib Chingiz Aytmatovning qabriga shunday yozilgan ekan. “ Odam uchun har kuni odamiy bo’lib yashash naqadar og’ir”.

Bu ham yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir.

Hazrat Payg’ambarimiz alayhissalom shunday marhamat qiladilar: “Kuchli pahlavon kurashda raqibini yenggan kimsa emas. Asl pahlavon g’azab onida nafsni yenga olgandir.”

Shunday ekan inson degan sharaflı nomga sazovor bo’lgan har bir banda nafsni poklashi, boriga qanoat qilib yashashi darkor.

Zero, xotirjamlik bilan ichilgan qataqsiz ugra osh birovning minnat bilan bergan shirin kulchasidan afzalroq.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, dostonlardagi ikkala hikoyatda ham boriga shukr qilmaslik, qanoatsizlik mavzulari yetakchilik qiladi. Ijodkorlar bu hikoyatlarni berish mobaynida Iskandarga hm saboq bo’lishini xohlashadi.

Ayniqsa “ Mashqirdan ganj topgan kishi” hikoyatida bu yaqqol namoyon bo’ladi. Iskandar dunyoning katta qismini egalladi, o’n ikki jaziradagi shaharlarni ham fath etgandan so’ng yana harbiy safarlarini davom ettiradi. Navoiy bevosita Iskandar timsolida Husayn Boyqaro siymosini ko’radi. Shohlik- ho’lu quruq demay, behalovat kezib, hammayoqni zabt etishdan iborat emas, balki Tangri bergan ne’matlardan elni bahramand etishdir.

Kimki sabrli va qanoatli bo’lsa dono va baxtiyor odam shudir.

Bu faslda voqealar rivojida farqlanuvchi, lekin g’oyaviy-mazmun jihatdan o’zaro o’xshash hikoyatlar bilan tanishib chiqdik.

Xulosa o’rnida yana quyidagilarni sanab o’tishimiz mumkin:

1. Dostonlardagi g'oyaviy jihatdan o'xshash hikoyatlarning dastlabkisi to'g'rilik, ishbilarmonlik haqidadir. Ardasher birgina o'rinli tadbiri bilan o'zidan o'n chandon kuchli raqibi bilan murosqa qila oldi. Bu bilan xalqni ofatdan, halokatdan, ocharchilikdan asrab qoldi. Arasher chin ma'noda Navoiy orzusidagi adolatli, odil, uzoqni ko'ra oldigan haqiqiy hukmdor edi. Jomiy ham "Kalxat va qurbaqa" qissasi orqali har bir kishining kelajagi o'zining qo'lida, Olloh hammaga ham aql, zehn bergan. Undan o'z o'nida unumli foyalanish kerakligini kitobxonga uqtiradi.

Insoniyat hayvonot va nabotot olamidan o'zining zehni, aql-idroki bilan ajralib turadi. Shunday ekan, keyingi hayotidagi ko'ngilsizliklarga barham berish ham yoxud shunaqangi balolarga duch kelishi ham o'zining qo'lidadir.

2. Tangri birovga to'g'ri fikrlash fazilatini ato qilgan bo'lsa, boshqa birovga har narsada yangilashadigan, hayotdan to'g'ri xulosa chiqarolmaydigan, nuqsonli qilib yaratgan. Keyingi hikoyat qahramonlari o'zlarining nodonliklari tufayli o'zlarini boshlariga yetadilar.

Oldingi qismlarda aytganimizdek, dostonlardagi hikoyatlar majoziy yo'l bilan ifodalangan. Uning tag zaminida insonlarga ishora bor, albatta. Odamlarda o'zida bo'lmagan narsalarga qiziqish doim kuchli bo'lgan. Kimning basirat ko'zini Tangri o'z qudrati bilan yaratgan bo'lsa, uning ko'zi qay tomonga tusharkan, u yerdagi g'aroyibotlarni boshdan oyoq ko'radi va istirobga to'ladi.

Basirat ko'zi ochiq bo'lmish odam astoyidil nazar solsa, dunyodagi hamma narsadan o'zi ajibroqdir. Kishi o'z avzoyiga boshdan oyoq boqib qarasa va har taraflama mulohaza qilib ko'rsa, uning ma'naviyatida g'oyat bebaho, ajib, maqbul va ma'qul fazilatlar borligini o'z ko'zi bilan ko'radi.

Olloh insoni to'rt unsur (suv, olov, havo, tuproq) dan yaratgach uning ichiga sirlar xazinasini yashiradi.

Demak, dunyodagi barcha ajoyibotlar, tilsimlar insoning o'zida ekan, u aqliga tayanib, uzoqni o'ylab ish tutishi lozim. (“Baliqlar” , “Tulki maslahatiga kirib suvaga sho'ng'igan tuya”, “Hiyla bilan sodda baliqlarni qo'lga tushirgan baliqchi qush” hikoyatlari misolida).

3. Olloh uchun eng sevimli bandalardan biri qanoatli va boriga shukur qiluvchi insonlardir. Himmati baland gado ham, nazari past shohdan ulug'roq, azizroqdir. Bunday ochko'zlarning sababi inson o'z nafsiga qul bo'lib qolganligida. Kimki o'z nafsini jilovlasa dunyoda undan kuchli inson yo'qdir.

2.2 Dostonlardagi yangi syujetga ega bo'lgan hikoyatlar talqini

Navoiy va Jomiy dostonlardagi hikoyatlar turli-tuman mavzuda yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu ikki ijodkor o'zaro maslakdosh bo'lgani uchun dostonlarida o'xshash hikoyatlarni ham yuqorida ko'rib o'tdik. O'z navbatida har bir dostonda o'ziga xosliklar mavjud. Garchand har ikkala doston ham Iskandarga bag'ishlangan bo'lsa-da, uning shaxsiyatini ochib berishda turli yo'llardan boriladi. Jomiy “Xiradnomayi Iskandar”da Iskandarning donishmandligini, faylasufligini ko'rsatib bermoqchi bo'lsa, Navoiy Iskandarida tasavvufiy ruh yetakchilik qiladi. “Saddi Iskandariy”, ya'ni “Iskandar devori” demakdir. Bu nafsga qarshi, foniy dunyoga qarshi qo'yilgan devordir. Shuning uchun ham bu mazmun hikoyatlarda aks ettirilgan.

“Saddi Iskandariy”da Jomiy dostonidan farqlanuvchi quyidagi hikoyatlar mavjud:

1. Mas'ud va Mahmud.
2. Ikki do'st.
3. Sulton Abu Said Ko'ragon.

4. Majnun.
5. Ikki do'st.
6. G'ofil yigit haqida.
7. Jigargo'shasidan ajralgan savdogar.
8. Baham Go'r.
9. Bulbul hikoyati.
10. Majnun hikoyati.
11. Kabutar hikoyati
12. Luqmon hikoyati.
13. Bilagi kesilgan odam hikoyati.

“Xiradnomayin Iskandar” da esa quyidagila:

1. Bir hokimning bir nokassa bilan uchrashgani.
2. Qishloq hokimi bilan uning o'g'li.
3. Qing'ir fikrli kishila orasida qolgan rostgo'y haqida.
4. Libosi nag'z, so'zi bemag'z yosh suxandon hikoyati.
5. Navqiron kanizakka xalifaning yetolmagani.
6. Yer sotib olib undan xazina topgan kishi hikoyati.
7. Hayit libosini kiyib, o'ziga mag'rur boqqan va ajal o'qi oyog'idan yiqqan yigit.
8. Bir farzand podsho va o'zidan begona devona hikoyati.
9. Marv Marvoni xotinining o'z qo'li bilan adovat qilgani.
10. Xotiniga: “Nimadan foydalansang seniki, berkitib qo'yganing o'rganiki”, degan hokim hikoyati.

Bu faslda yuqorida nomlari sanab o'tilgan hikoyatlar va ularning mazmun-mohiyati xususida fikr yuritamiz .

Vafotidan so'ng Mas'udning tushiga kirib adolat bobida pandu nasihatlar bergan va bu nasihatlarining tiniq suvidan uning yuziga sepib g'aflat uyqusidan uyg'otgan Mahmud hikoyati.

Axloqiy-tasavvufiy hikoyatlarda ayrim tarixiy shaxslar ham o'zining haqiqiy qiyofasidan yiroqlashib, asarlarda so'fiyona mohiyat kasb etadi. Tasavvuf adabiyotining shu kabi tarixiy-afsonaviy siymolardan biri Sulton Mahmud G'aznaviydir. Tarixning guvohlik berishicha, Mahmud Gaznaviy ibn Sabuktegin (1030- yillari hukmronlik qilgan) g'aznaviylar sulolasining uchinchi va eng qudratli hukmdori bo'lib, uning hayoti va faoliyati haqida faqat manbalarda emas, balki adabiy asarlarda ham turlicha fikr va qarashlar saqlanib qolgan. Agar shoh Anushervon barcha adabiy asarlarda odillik timsoli bo'lsa, Hajjoj bin Yusuf zulm va istibdodning namunasi. Ammo adabiyot tarixida shunday obrazlar tizimi ham borki, ular turli fikr va g'oyalar, hatto ayrim holatlarda ziddiyatli qarashlarni ifoda etadi. Bu tabiiy hol, albatta. Mahmud G'aznaviy ham ana shunday murakkab va ko'p qirrali obrazlardan bo'lib, adabiyotda sulton hayotining quyidagi jihatlari nisbatan keng yoritilgan:

1. Sulton Mahmud va Abulqosim Firdavsiy mojarosi

Ma'lumki, buyuk shoir "Shohnoma" asarini Sulton Mahmudga

bag'ishlaydi, ammo xizmatiga yarasha izzat va hurmat ko'rmaydi. Ranjigan Firdavsiy uning arziyas sovg'asini rad etib. Ushbu mashhur hajviyasini yozadi. Adabiyotda bu hikoyat ko'pincha so'zning qadr-qimmatini va qudrati, shuningdek, shoir hurmatini bajo keltirmaganlarning oqibati haqida fikr yuritilganda dalil sifatida keltiriladi.

2. Sulton Mahmud va Ayoq

G'azna sultonining Abunajm Ayoq ibn Uymoq ismli sohib jamol quli mavqe va e'tibor jihatidan podshoh oldida hammadan baland mavqeda edi. Shoh uni juda yaxshi ko'rardi. Shoh va xodim o'rtasidagi muhabbat ko'p qissa va dostonlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Umuman olganda, Sulton Mahmud obrazi XI asrdayoq tasavvuf she'riyatiga kirib kelgan edi. G'aznaviylar saroyida (aniqrog'i, Sulton Mahmudning o'g'li - Mas'ud saroyida) xizmat qilgan Sanoiy she'riyatida ham bu shoh obrazi orqali, asosan, so'fiyona ma'no va maqsadlar

ifoda etilgan. Keyingi asrlarda ham shoirlar Sulton Mahmud obraziga ko'p murojaat qilganlar. Birgina Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonida Sulton Mahmud haqida 12 hikoyat mavjud. Ulardan "Sulton Mahmudning bu dunyodagi ahvoli" hikoyati biz uchun ko'proq ahamiyatliroq, chunki Sulton Mahmudning boqiy dunyodagi ahvolidan hikoya qiluvchi naql "Saddi Iskandariy"da ham bor. "Mantiq ut-tayr"dagi hikoyatning qisqacha mazmuni shunday:

Bir kishi Sulton Mahmudni tushida ko'rib, uning oxirat olamidagi ahvoli qandayligi haqida so'raydi. Bu dunyodagi shohligi unga narigi dunyoda biror imtiyoz berdimi-yo'qmi ? Javobida Sulton Mahmud bu foniylar dunyoda shoh bo'lganidan benihoyat pushaymon ekanligini izhor etadi, chunki boqiy dunyoda u olamning haqiqiy shohi – butun borliqning Yaratguvchisini tanidi. Haqiqiy shohni bilgandan keyin bir parcha yerda qisqa muddat o'zini hukmron deb tasavvur qilganidan sharmanda bo'lganini izhor etadi." "Saddi Iskandariy"da ammo adolat ta'rifidagi bobdan keyin "Mahmud g'oziy" haqida bir hikoyat keltiriladi. Unda Sulton Mahmud noma'lum biror kishining tushiga emas, balki o'z farzandi Mas'udning tushiga kiradi. Mas'ud undan shohlik davrida qilgan qaysi amali uchun bugun jannat bog'ida sayr qilib yurganligi haqida so'raydi. Sulton Mahmud javob beradi.

Hindistonni fath qilgandan keyin sipohiylar tinch aholiga hech qanday ziyon-zahmat etkazmasin, deb farmon berdim. Bu farmon qanday bajarishayotganini bilish maqsadida sayrga chiqib, bir o'rmonni kezayotganimda, qashshoq hind qabilasiga duch keldim. Shu paytda a'lamli bir faryodni eshitib, o'sha tomonga ot soldim. Qo'shinimdagi sipohiylardan biri bir bechora hol kampirning qamish kulbasiga bostirib kirib boyligi – spol kosasini tortib olib chiqayotgan ekan. Zolim askar olgan yog'ochlar, somon va sopol kosani kampirga qaytarib, uyini tuzattirdim. Boshqalarga ibrat-saboq bo'lishi uchun uni shu kampirning uyi oldida dorga osishga amr etdim-da, boshqa ishlarim bilan mashg'ul bo'ldim. Foniylar dunyoni tark qilganimda g'aybdan nido keldi: "Jamiki gunohlaring bir mushtipar

kampirga qilgan adulating tufayli kechirildi va qilgan har bir riyosiz amaling uchun mukofot berildi.

Navoiy deyarli har bir asarida adolat xususida soʻz yuritgan. Uning adolat haqidagi qarashlarining barchasi Husayn Boyqaroga qaratilgan. Hatto “Hayrat ul-abror” dostonida “Shoh Gʻoziy” hikoyatini keltirgan. Hikoyatda ham kampir guvoh sifatida shohning adolati va insofini krltiradi.

Umuman Sharq mumtoz adabiyotida hech qachon eskirmaydigan mavzulardan biri adolatdir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida ham beklikka loyiq bek albatta adolatli boʻlishi kerakligi alohida taʼkitlangan. Hukmdor xudoning yerdagi soyasi deb qaralar, demak, shohlar doimo adolat bayrogʻini baland koʻtarishlari lozim.

Adolat xususida muqaddas kitoblarda ham koʻp keltiriladi. Xususan, ikki dunyo shohi Rasuli Arab oʻzining hadisida adolat ahliga shunday bashorat qilgan edi. “Agar obod mamlakatga qaralmasa, u kufr aro qoladi, agar u vayronlikga yuz tutgan boʻlsa, bu zulm oʻtkazilganlikning natijasidir.

Xullas, shoh agar adolat bilan siyosat qilsa, mamlakatda Noʻshirvonniki singari obod boʻladi. Inson guruhiga yaxshilik qilgan shohni haq adl-u ehsonga doxil qiladi. Agar u xalqa qancha vaqt zulm yetkazsa, bularning hammasi uning oʻz joniga qiyinchilik boʻlib tushadi.

“Necha sirfadin shoh kerakdur yiroq,

Bu yerda vale sirfasi yaxshiroq.

Shohekim , anga boʻlgay , qiliq,

Ikki do'st hikoyati

Ikki do'st hikoyatikim, biri sa'y – harakati bilan mamlakat sultoni darajasiga yetdi va ikkinchisi olam ahli oyog'i ostida tepki yeb yotgan yerdek xokisor bo'ldi; negaki garddek harakat etmadi, tuproqdan bo'sh ko'tarib oliy maqomga yetmadi.

Hikoyata keltirilishicha, Xurosonda ikki o'rtoq bor edi, bular bir-biriga juda mehribon do'st edilar. Falak gardishi teskari aylanib, tirikchilik bobida qo'llari g'oyat kalta bo'lib qoldi. Biri uy-joyidan umid uzolmay hech yerga ketmadi. Ikkinchisi safarga jo'nab qoldi. Davron, uyda qolganing boshiga ko'p kulfat soldi, el-ulusdan xorliklar ko'rdi. Natijada dunyodan uzilib hech kim bilan gaplashmay, pana-panalarda kun o'tkazdi.

Musofirchilikni bo'yniga olib, safarga chiqqan o'rtoq o'sha xorlikda o'zini xalos qildi. Safar chog'ida ko'p ajoyibotlardan xabar topdi. Oxiri, uning yo'li yunon tomonga tushdi. Ilm olishga bel bog'ladi. Ko'p bilimlar egallab mashhur faylasuf bo'lib yetishdi. Endi u Hind diyori sari azm etdi. Bu paytda Hind shohi ko'zi ojiz bo'lib qolgan edi. Shoh “Kimki say-harakat qilib, mening ko'zimni ochsa, unga ko'z nurimni, ya'ni qizimni nikohlab beraman”, - deb va'da bergan edi. Haligi safarda yurgan dono ikki kunda shohning ko'zini ochadi. Va'daga muvofiq, Hind shohiga kuyov bo'ladi. Nihoyat, shohning umri poyoniga yetib o'lgach uning o'rniga shoh bo'lib qoldi.

Bundan o'z shahrida qolgan do'sti xabar topib, o'sha tomonga yo'l oladi. Do'sti kelganidan suyunib, unga vazirlikni topshiradi.

¹Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy.- T: G'afur G'ulom, 2006. –B.87.

U ham sayr-safar xosiyatidan vazirlik martabasiga erishib, turmushi g'oyatda yaxshilanib ketdi.

Xalqimizda shunday maqol bor: “Yurgan - daryo, o'tirgan bo'ya”. Odamzodga mehnat qilish imkoni berilgan. U tug'ilganidan boshlab nimanidir qo'lga kiritishga intiladi, harakat qiladi. Qachondir boshga kulfat tushganda orqaga chekinmay yo tushkunlikka tushmay oldinga qarab yana intilish kerak. Hech bir ish mashaqqatsiz, riyozatsiz bo'lmas. Har kim o'z hayotini o'zi quradi. Yaxshi sharoitda yashash uchun mehnat qilish, ilm o'rganish kerak. „Xitoyga borib bo'lsa, ham ilm o'rgan”,-deydi dono xalqimiz. Safar qilishning fazilatlari ko'p safarda, musofirchilikda odam chiniqadi. Ko'p ilmlar xabardor bo'lib, oq-u qorani taniydigan bo'ladi. Hech bir ishga hafsala qilmay bir joyda turg'un o'tirib bo'lmaydi. Hatto chumoli ham qishning g'amini yozda yeydi, tayyorgarlikni ko'radi.

Yuqorida ikki do'stning xatti-harakati va ularning taqdiri haqida tanishib o'tdik. Birinchisi mashaqqat chekishini xohlamay, olma pish og'zimga tush, deb qarab turdi. Natijada o'z elida ham xorlik-zorlik ko'rib, muhtojlikda kun o'tkazdi. Ikkinchisi o'zining say-harakati, tirishqoqligi bilan jahon kezib, dunyo ajoyibotlaridan xabardor bo'ldi ham ko'plab ilmlarning sohibiga aylanib, dunyoga dong'i ketgan faylasuf bo'lib yetishdi. Oxir-oqibat Hind shohining dardiga davo topib, shohlik martabasiga erishdi. Do'sti ham oxirida safarga chiqib mashaqqatlar chekib kelgan edi, vazirlik darjasiga muyassar bo'ldi.

Iskandar ham Xuroson, Movarounahrlarni egallab, Kashmir sari yo'l oladi. Ming bir mashaqqat bilan kuchli raqibini yengib jahon ahliga shoh bo'ladi. Inson har bir kunini qadrlashi uning g'animatligini his etib yashashi kerak. Daryo ham oqqanida ohang chiqarib, go'yo kuylaydi, turib qoldimi – kuyi tinadi.

Safar qilmagan odam xom bo'ladi. U oromda yashaganidan ozgina sovuq ham ta'sir qilib qoladi. Eng buyuk ishlarni qilgan insonlarning hammasi musofirlikda kun kechirganlardir. Safar eliga xizr hamrohlik qiladi.

Qissadan hissa shuki, safar zahmati garchi mushkul bo'lsa-da, undan keladigan foyda totlidir.

**Hayotning har bir holatidan voqif bo'lgan tajribali keksa
nasihatining qadrini bilmagan, fursat o'tgandan so'ng esa behuda
pushaymon bo'lgan g'ofil yigit haqida.**

Eshitishimcha, bir ajoyib barno yigit bor edi. Lekin u o'spirinlik davrida qilinishi zarur bo'lgan ishlarga qayrilib qaramas, doim o'yin-kulgu bilan kun o'tkazardi. Qishin-yozin faqat may ichardi.

Shu yigitning bir dili pok qo'shnisi bo'lib, hayotning hamma yo'l-yo'riqlaridan, dunyoning achiq-chuchugidan to'la xabardor edi. Bu ota unga ko'p nasihatlar qilar, lekin foydasi bo'lmas edi. Yigit cholning gapiga quyidagicha javob qaytarar edi.

- Yigitlik chog'i – o'yin-kulgu, rohat qilish davri, qarilik esa mehnat va toat-ibodat davridir. Yoshlikda qilingan hamma gunohlar kechiriladi. Mehnat va ibodatning vaqti keladi, o'shanda qilamiz, der edi.

Bu yigitning yoshligi o'tib, kuch-quvvatdan qoldi. Endi na ishga yarar va na ibodatga chog'i kelar edi. U doim axloqsiz, yaramas ishlarga odatlanib, mehnat va ibodat kabi hayotiy zaruratlar unga o'g'ir tuyular, qo'llari ham qovushmas edi.

U bu paytda o'lim to'shagida bo'lganiga qaramay, o'z umrini, mehnat va ibodat qilmay nojo'ya ishlar bilan o'tkazganini eslab, pushaymon yerdi.

Shunda dono pir: "Ko'p nasihatlar qildim, yo'l-yo'riq ko'rsatdim, quloq solmading, shunday kunlar oldingga kelishini o'ylamading"- dedi. U bechora qariganda shunday ahvolga tushishimni bilganimda yoshlik davrimni uvol qilmagan bo'lar edim derdi.

"Otang necha kirib o'ldi", - deb so'radi chol. Hisob qilib: "112 yoshda", - deb javob berdi. "Shu paytda u ham kuch-quvvadan qolgan edim?"- so'radi chol tasdiq javob olgach kulib: "E, har narsaga yengil va beparvo qarovchi odam, otangning boshidan o'tgan kun - senga tajriba emasmi?" – dedi.

Tangri qanday ne'matlarni nasib qilgan ekan, shu ne'matning shukrini ham ado qilmoq zarur bo'lgani kabi, yoshlik ne'matining shukri ham uni foydasiz ishlar bilan o'tkazmaslikdir. Umr g'animatdir. Har narsaning uvoli bo'lganidek, behudaga sarflangan vaqtning ham uvoli bo'ladi. Yigitlik chog'i mehnat va ibodat bilan vaqt o'tkazish joizdir.

Yoshlik chog'ida qarilikning g'amini yeb, barcha yumushlarni o'z vaqtida ado etmoq lozim. Hash-pash deguncha bu o'spirinlik chog'i o'tib, qarilik ko'chasiga qadam qo'ysang, keyin bu kabi shodlik yeli esmaydi, aksincha, tanangda quvvatsizlik hukmronlik qiladi.

Yuqoridagi hikoyatda g'ofil yigit umr bahorini behudaga sarflaydi. Pand-nasihatlarga quloq solmaydi. Qariganda toat-ibodat ham qilishga majoli qolmaydi. To'g'rida, yoshlikda o'yin-kulgi bilan kun o'tkazgan odam qanday qilib qariganda ibodatga hafsalasi bo'lsin?! Umr o'tgandan keyin afsus-nadomatning foydasi yo'q. O'spinlik davri – mehnat - riyozat chog'idir, qarilik esa u dunyoga ketish arafasidir.

Inson umri faslarga qiyoslanadi. Har bir yoshda, davrda ma'lum bir vazifalarni ado etish kerak.

Xudo o'zi umrining kunlarini bo'lib qo'ygan uning har bir fursati bir ishga mo'ljallangan. O'n yoshgacha odam oyog'i boyloq, g'aflatda bo'ladi, yigirmagacha odam odam umri bilmsizlik, mastlik bilan o'tadi. O'ttiz bilan qirqning orasi xursandchilik davridir. Elikka kirganda kishi taraqqiy topmasa, oltmishga yetganda uning ishi tanazzuldan iborat. Yetmishgacha kishi oyoq ustida tura olishi kerak, saksonda esa uning o'tirishi farzdir. To'qsonga kirgandan keyin yiqilishi, yuzga to'lgandan so'ng jonni tark etishi kerak.

Umri mehnat va riyoizat bilan chiniqqan insonlar sog'lom bo'ladi shuningdek, qancha qarisa ham ularning yuzida keksalik alomatlari sezilmaydi. Ular yashagan sari aql va bilimga to'lib boradilar.

Ota-onalarimiz ham bizlar singari yoshlik davrlarini o'tkazganlar. Demak, biz ham ular singari hassaga tayanib qolishimiz mumkin. Xudo nima uchun yer yuzida ko'plab insonlarni yoki hayvonlarni yaratgan? Bir-biriga o'rnak bo'lishi uchun, albatta. Shunday ekan bir insoning qilgan xatosi boshqalarga dars bo'lishi kerak.

Xullas, baxtli va alli odam yosh umrini bekorga o'tkazmaydi, qiladigan ishlarini qilib, murodiga yetmasdan bu dunyodan ketmaydi.

“Saddi Iskandariy”da ko'pgina hikoyatning qahramoni etib tarixiy shaxslar olingan ulardan bir Bahrom Go'rdir.

Bahrom Go'r hikoyati

Hikoyatda aytilishicha, shoh Bahrom Go'r bir kuni otga minib, ovga chiqdi. U ov paytida bir qulonning izidan quvib askarlaridan uzoqlashdi. Ko'p yugurib yelgandan so'ng, yolg'iz o'zi, ikki-uch kapa tikilgan bir joyga borib qoldi. Shoh haddan ziyod charchagan va yemakka muhtoj edi. U borgan joyda, xonadonlar oldida bir daraxt bo'lib, shoh shu daraxt soyasidan qo'nim topdi. Otdan tushib bu yerdagi odamlarga murojaat qildi. “Men bu

dam sizlarga mehmonman. Nimaiki tayyor bo'lsa, o'sha bilan meni mehmon qiling, zero och odamning qanoatlanishi uchun nima bo'lsa, shu kifoyadir.

Bu yerda uch ta uy bor edi, xolos. Bu uch uylikdan bittasi Qorunday badavlat bo'lsa ham, ammo nazari past odam edi. U shohning aytganlariga e'tibor ham bermadi. Ikkinchisi esa isrofgar edi. U qo'ylar so'ydirib, katta qazonlar osdirib, zo'r bir ziyofatning tayyorgarligini ko'ra boshladi. Ochlik mehmoning dimog'ini kuydirayotgan bir paytda uning ertaga pishadigan ovqatidan ne foyda? Va lekin uchinchi xonadoning egasi aqlli odam edi. Zotan, u baxtiyor odam shohni o'z uyiga olib kirib, o'sha ondayoq uning oldiga tayyor turgan non va ovqatni qo'ydi. Tayyor ovqatni yegach shohdan ochlik ranji ketdi, joni huzur topdi. Shoh haligi odamga ko'p mol-dunyo berib, holi past odamga judda qattiq ta'zir berdi. Isrofgarni esa ancha uyaltirib, tanbeh berdi.

Eng yaxshi odam shuki, inom-ehsonni o'ziga hunar qilib olg'ay va dunyoning bor-yog'idaqn tashvishlanmagay. Bu dunyoda o'zini mehmon deb bilgani kabi, zamoning barcha kishilarini ham o'ziga mehmon deb anglagay. Birov unga mehmon bo'lib qolsa, past va baxil kishilardek undan qochmagay, balki mehmonsiz nahor qilmagay.

Mehmon eshikdan kirib kelishi bilan unga beqiyos iltifotlar ko'rsatib, ochiq yuz va yaxshi xulq bilan unga peshvoz chiqish lozim. Mehmon kutish odobi xalqimizda ming yillar davomida eng qadimiy odatlarimizdandir. O'zbek xalqi mehmon uchun butun noz-ne'matlarini muhayyo qiladi. O'zi yemasa ham, mehmon uchun tayyorlaydi. To kuzatib qo'yguncha uni ko'nglini olishga harakat qiladi.

Mehmoni to'ydirmay turib, o'zini to'ydirishga urinmaslik, mehmon ovqatdan qo'l tortmay turib, mezbon qo'lini artmasligi lozim. Mehmoni xoh shoh, xoh gado bo'lisiga qaramay, unga mehribonlik rasm-rusmlarini yaxshi

ado etishi keak. Shohning oldiga yog'li patir ushatib, faqirga qattiq non, yovg'on atala qo'ymaslik ham maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi hikoyatda mehmoni kutib olgan uch xil mezbonga guoh bo'ldik. Birinchisi, Qorunday boy bo'lsada, hatto shohni taklif qilishga yaramadi. Ikkinchisi, haddan ziyod isrofgarchilikga yo'l qo'ydi. Uchinchisi esa haqiqiy ko'ngli ochiq, saxiy mezbondir.

Xudo insonlarga ato etgan eng oliy fazilatlardan biri karam (saxovat) va saxiylikdir. Saxovat bobida hammani teng ko'rmoq lozim. Axir quyosh zarrini koshonani ham, vayronani ham o'z nuri bilan baravar yorug' etadi. Saxovatda mezbon bulutdek bo'lmog'i lozim, zero, bulutga yer ham, yer egasi ham barobardir. Saxovatda Hotam toy singari bo'lmoq uchun.

Saxovatning bir necha xil ko'rinishlari mavjud:

Birov senga mehmon bo'lib kelganda uning oldiga har narsani to'kib solib, isrof qilish ishtiyoqi tug'ilmasin. Yoki mehmon kutish ishtiyoqi izzat-obro' ortirish, shuhrat qozonish uchun bo'lmasligi kerak.

Xudo ("Quronda") dedi: "Yenglar, ichinglar, lekin isrof qilmanglar".

Shunday kishilar borki, hech yo'l qo'ymaydilar, lekin bunday odamlarni saxiy deb bo'lmaydi, - birovga ehson berishda me'yorga amal qilmaydilar. Lekin ehson berilayotgan odamning muhtoj ekanligiga qaramaydilar.

Yoyar anga supraki, ul och emas,

Berur unga to'nki, ul yalang'och emas.

Ot anga tortarkli, yuz yilqisi bor.

Sim anga berurki, yuz ilg'isi bor.

Ular qaqrab yotgan bog'ning ustidan yog'may o'tib, yomg'irni toqqa to'kkan bulutga o'xshaydi.

Yana bir xil insonlar borki, ta'magir odamlardan narsa olish, shu olgan narsalari nisobiga narsa ulashadiganlar.

Yana birisi o'zi so'ramaguncha unga hech narsa bermaydi.

Mehmon kutish odobi haqida hadislarda ham keltiriladi. "Xayrul umur", ya'ni har bir ishda o'rta miyonalik yaxshi" dir.

Demak , "Bahrom Go'r" hikoyatidagi birinchi qahramoni o'zi so'ramaguncha bermaydiganlar xilidan, o'ta baxil inson. Ikkinchisi haddan ziyoda isrofgar. So'nggi qahramon esa mehmon kutishning hamma talablariga javob beradigan saxovatpesha mezbondir.

Shu bilan birga "Saddi Iskandariy"da dunyoning o'kinchiligi g'oyasi singdirilgan yana bir hikoyat mavjud. Bu Luqmon haqidagi hikoyatdir. Bu hikoyatdagi yetakchi mavzu "Kimki dunyoga hirs qo'ymasa, jahoning ranj-mashaqqatidan xalos topishji osonroqdir".

Bu hikoyat dostonning oxirlarida, ya'ni Iskandarning o'lim to'shagiga yotgan mahal keltirilgan. Iskandar ham butun jahonni egaladi-yu, so'ngida ona vatanini, onasini yor-do'stlarini ko'rish ishtiyoqida yona-yona bu dunyoni tark etdi. Iskandar ham bu dunyo boyligiga hirs qo'yib uni egallagan bo'lsa-da, uning rohatini ko'rmay umrining so'nggi kunlarini armonda o'tkazdi.

Dostondagi eng so'nggi hikoyat **"Bilagi kesilgan odam"** hikoyatidir. Quyida shu xususida to'xtalib o'tamiz.

Hikoyatda keltirilishicha, bir bechora odam bo'lib , falak unig boshiga ko'p ranj va xor-zorliklar solgan edi. Bu ham kamlik qilganday, boshiga yana qora kun tushib, tuhmat bilan uning qo'lini ham kesdilar. Bu zulm unga juda

ham o'tib ketdi-yu , ammo u indamay, hech kimga dod-voy qilmay, yugurib borib, kesilgan bilagini butun qo'liga olgan holda, xaloyiqqa hech qanday iltifot qilmay, jo'nab qoldi. Bu voqeadan xabardor bo'lgan ko'ngli pok bir odam hayron qolgan holda asta indamay uning ortidan ergashdi. Bu holning nima bilan tugashini bilmoqchi bo'lib, uning ortidan kuzatib borardi. U xalqdan chetga chiqib, uzoqlab ketdi. U devonalarcha qadam tashlab bir vayronaga yetadi. Bu xarobada qo'li xuddi shunga o'xshab nohaq kesilgan bir qancha dardmand alamzada kishilar bor edi. Yuragi g'am-a'lamga to'lgan odam ularning oldiga yetib borgach, xuddi yuragiga nishtar sanchilgandek bo'lib, kesilgan bilagini irg'itib dodlab yubordi. Buning ahvolini ko'rib, ular ham dod-voy solib yig'lashardi. So'ng bularning hammasi bir-birovlari bilan quchoqlasib, shunday yig'i zor qildilarki oh-nolalaridan olam yuzi qora bo'ldi, shunda bu ishni bilmoqchi bo'lib bekinib yurgan haligi odam bu azabazalikni ko'rgach, farosat bilan quyidagi xulosaga keldi:

Bu zulmga uchragan odam, xalqdan chetlab borib, o'ziga o'xshab zulm ko'rgan kishilar bilan hamdard bo'ldi. Agar birov o'ziga hamdard kishini topsa, yashirib yurgan dardini pinhon tutmoqning zarurati va imkoniyati ham qolmaydi.

Ikki insoning holati, xarakter, kayfiyati bir-biriga mos kelsa , ular ham fikr va suhbatdosh bo'lishlari oson kechadi. Kishilar dastlab xulqlari, tabiatlari bir-biriga muvofiq kelishi tufayli hamjins bo'ladilar. Yoki tug'ma fe'l-atvorlari o'xshash bo'lsa ham, bir birlariga tabiatdan yaqin bo'ladilar. Bu ikki hamjinslarni rohatlarini barobar baham ko'radilar, ranj-mashaqqatda ham bir-birlariga hamdard bo'ladilar. Boshqalarga tushgan xildagi holat bularning bir-biriga bo'lgan munoabatini yanada oshiradi, bir - biriga yanada yaqinlashtiradi. Ikki do'stning boshida bir xildagi kayfiyat sodir bo'lgach, bular beixtiyor bir-birovlarini izlab qoladilar. Biz ko'rib o'tgan hikoyatda ham xuddi shunday vaziyat edi. Nohaq bilagi kesilgan odamga xaloyiq

orasida hamdard yo'q edi. Uni tushinadigan, so'zlariga ishonib dardini oladigan bir mehriboni, dardkashi yo'q edi. Chunki bu yerdagi odamlar bilan haligi kishining holati ikki xil edi.

Har qanday qiyin ahvolda qolgan inson ham har kimga dardini aytavermaydi. Shu suhbatdoshi uni dardini yengillata olishiga ko'zi yetgandagina yoriladi. Shunday vaziyatni boshdan o'tkazmagan odam ham suhbatdoshini og'irini yengil qilmasligi mumkin.

Hikoya qahramoni ham shuni anglagan, bilgan holda qanchalik og'ir bo'lmasin, xaloyiq oldida dod-voy qilmay o'zi singari dardman kishilar orasiga bordi. Ularni ko'rgan zahoti yuragi bo'shab dodlab yubordi.

Bu hikoyat Iskandar vafotidan so'ng keltirilgan. Iskandarning hayoti oxiriga yetgach, onasining ko'ziga dunyo tor, qorong'u bo'lib qoldi. Dunyo Bonusi, ya'ni Iskandarning onasi ham hamdardga muhtoj edi. Uning yoniga yetti ilm daryosi bo'lmish yetti dono, faylasuf tashrif buyudi. Ular ham o'z navbatida hamdardga muhtoj edilar. Bir-bilariga dillaridagi hasratlarni aytgach, ancha yengil tortdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xoh vahshiy hayvon, qush bo'lsin va xoh inson-u jin bo'lsin, baribir, ikkisi hamjins bo'lsa, bir-birlariga shu xilda yaqin va do'st hamda og'ir kunlarda hamdard, darddosh, dildash bo'ladilar.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi o'ziga xos hikoyatlar bilan tanishib chiqdik. Endi “Xiradnomayi Iskandariy”dagi hikoyatlar tahliliga o'tamiz.

Bir hokimning bir nokasta bilan uchrashgani

Hikoyada keltirilishicha, qadimda sodda, oddiy, kamsuqum, shuningdek, husndan mahrum bir hokim o'tgan ekan. Boshdan oyoq shunday shikasta bo'lib, hatto oyog'i oqsoq hamda biror barmog'i o'ziga bo'ysinmaydigan shol emish.

Kunlarning birida farosatsiz, yuzsiz bir kimsa unga malomat toshini otib, shunday soʻz aytibdi:

“Oʻzi shakl-u shamoyiling shu boʻlsa, senga hikmatdan soʻz ochishni kim qoʻyibdi? Baribir qora loyning suvi sof boʻlmaydiku. Hatto meva ham xushrang, xushboʻy boʻlmasa, unga qarab turishning foydasi yoʻq.” Yaʼni sen oʻzing xunuk, beoʻxshov, bemor odam boʻlsang, aytadigan gaping qanaqa ham boʻlardi.

Shunda hokimning bu gaplardan kulgisi qistab javob berdi:

Ey sodda dil inson men kasalmand boʻlsam-da, hokimlikdek ulugʻ ish nasib etdi. Qanchadan qancha yangi ilmlarni oʻrgandim, xalq holidan boxabar boʻlib, mushkullarini qoʻldan kelgancha oson qildim. Ilm-hunar oʻrganay, insonlarga foydam tegsin deb, suratimni sozlashga vaqt topolmabman. Siyratim maʼnaviy takomilga erishibdi-yu, lekin zohirimni oʻzgartirishga ham urinib koʻrmabman, bu kamchiligimni malomat qilma”.

Jomiy dostonidagi har bir hikoyat soʻngida soqiy va mutribga murojaat keltirilgan. “Saddi Iskandariy” da bunday holatga duch kelmaymiz. Hikoya soʻngida Jomiy mutribga quyidagicha murojaat qiladi. “Sen shunday xushnavo chalki, koʻzlarim ochilsin, oʻz aybini koʻradigan boʻlsin, zero, boshqalarni aybini izlashga urinmasin”. Insonning tashqi koʻrinishi hamma narsani ham hal qilolmaydi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda shakl va maʼno, surat va siyrat, zohir va botin istilohlari mavjud. Surat, zohir atamalari insonning tashqi koʻrinishiga nisbatan ishlatiladi. Siyrat va botin esa odamning ichki dunyosi, olamidir. Insonning tashqi koʻrinishi (zohiri) xunuk boʻlishi mumkin, lekin bu hech narsani belgilamaydi, muhimi koʻngil pokligi, qalbning goʻzalligi, maʼnaviy dunyosining boyligidir. Tashchi koʻrinishi chiroyli-yu, ammo siyrati nobop boʻlsa, unday insonning el orasida hurmati boʻlmaydi. Bundaylar bilan ozgina suhbatlashsangiz kifoya ichki dunyosi uning soʻzlari orqali zohir boʻladi.

Hokimning yurishga imkoni bo'lmasa-da, tashqi ko'rinishi diltortar bo'lmasa ham, o'zining ilmi, o'tkir aqli, ishbilarmonligi bilan xalqni idora qilyapti. Butun el shu hokim tufayli farovon, tinch hayot kechiradi. Hokimni bunday ishlarni qilishi uchun uning oqsoqligi, bemorligi xalal bermaydi, muhim ham emas. Insonning ichki dunyosi qanchalik go'zal bo'lsa, uning so'zlari, amallari ham shu qadar latif bo'ladi.

Hikoyatdagi bir yuzsiz kimsaning to'rt muchasi sog'lom, jismoniy tomonadan hech qanday kamchiligi bo'lmasa ham, aytadigan gapida ma'no – mazmun yo'q. Bunday insonlarni mag'zi yo'q danakka qiyoslash mumkin. Uning aqli va fahm-farosati joyida bo'lganida bunday noma'qul gaplarni aytmagan bo'lar edi. Uning bu xatti-harakatidan ma'naviy dunyosining naqadar qashshoqligini anglab olish qiyin emas, albatta.

Xullas, kamchiliksiz insonning o'zi yo'q, beayb yolg'iz Parvardigordir. Mukammallik Oллоhga xos xislatdir. Shuning uchun ham har to'kisda bir ayb bor. Inson boshqalardan ayb izlashdan oldin, o'ziga ham bir nazar solishi kerak. Insonning zohiridagi nuqson botinidagi kamchilikdan ming marta yaxshiroqdir.

Qishloq hokimi bilan o'g'lining hikoyati

Bir xudbin, gerdaygan, dimog'dor qishloqlik yigit bor edi. Uning otasi shu qishloqning hokimi edi. O'g'lining dilida podsholik g'ururi bo'lib, hammaga past nazar bilan qarardi. Kunlarning birida ota shaharga yo'l oldi, o'g'il ham unga ergashdi. U shaharni kezar ekan o'zini qishlog'iga solishtirib borar edi. O'g'il shahardagi ko'chalarni ko'rib, hayratdan lol bo'lib qoldi. Safar davomida ayvoni osmonga bo'ylasha oladigan saroyga ko'zi tushib qoldi. Bu hashamatli saroyni minglab askarlar qo'riqlardi. Shuningdek, oldida peshvolar nur sochib turgan tojdorni ko'rib hayrati yana ming chandon oshib ketdi. Yon-atrofdagilaridan bu tojdor haqida surishtirganida, uni podshoh ekanlogini bilib, xayoli parishon bo'lib, otasiga qarab asta so'z qotdi: "Shukuh shunday bo'lsa, bizlar bir lo'li!"

Yuqoridagi hikoyatda o'ziga ortiqcha baho bergan dimog'dor, takabbur, xudbin bir o'g'ilning xatti- harakatlarini kuzatdik. Uning otasi hokim bo'lgani uchun burnidan naridagi narsani ko'rolmasdi. G'o'yo undan mansabdorroq, aqlliyoq kishi yo'qdek. Bu xuddi okean ko'rmagan baliqlarga o'zi suzib yurgan kichkina hovuz ham dengizday tuyilishiga o'xshaydi. Shahar kezib u yoq, bu yoqlarni ko'rgach, o'zining qanchalik takabbur hamda dunyoqarashining naqadar torligiga amin bo'ldi.

Qahramonnnig saroyini undagi dabdaba, hasham va shohni ko'rgandagi ahvoli hikoyada quyidagicha tasvirlanadi:

“O'g'il esa hanuz dunyoda faqat,

Otada ko'rgandi ulug'lik sifat.

Nazarida hech kim yo'qdek dunyoda,

Shukuhda, shavkatda undan ziyoda.”¹

Insonni boshqalar orasida tubanlashtiradigan illatlardan biri takabburlik, manmanlikdur. Xalqimizda shu holatda qo'llasa bo'ladigan ajoyib bir maqol mavjud. “O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil”. Bunday insonlar har qadamda qoqiladi. Kamtarlik esa insonni ulug'laydi. Qishloq hokimining o'g'li ham shavkat, u'lug'likni faqat otasida bor deb o'ylardi. Shahar kezib u yerdagi yangiliklarni ko'rgach, xulosa qilishga shoshilmaslik kerakligini angelaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson o'ziga ortiqcha baho bermasligi, atrofda undanda ziyoda kishilar bo'lishi mumkinligini bilishi lozim.

¹ Жомий Абдурахмон. Хирадномайи Искандар. –Т. 1978. –Б. 41

Jomiyning bu dostonno yozishdan maqsadi Iskandarning donishmandligini ko'rsatib berish edi. U Iskandarning shohligini hech bir o'rinda alohida ta'kidlamaydi. Bu ruh uning hikoyatlariga ham singdirilgan.

Qing'ir fikr kishilar orasida qolgan rostgo'y haqida hikoya

Hikoya qilinishicha, Hindistonda bir podsho bo'lib, do'stlari sharafiga bazm uyushtiribdi. Kelgan mehmonlar o'zlari guvoh bo'lgan nodir voqealarni birma- bir aytishardi.

Biri shu xususda so'z ochdi: "Arab yurtida ajab bir maxluq bo'lib, tanasi tuyanikiga o'xshashu, ammo pati ham bor. Lekin na parranda van a jonivor. Buning ustiga yemish o'rniga olov yutar emish". Bu hikoyani kim eshitmasin ishonmas, "jim bo'l!"-deya baqirardi. "Patli tuya bo'lishi mumkin emas, sen yolg'on gapiryapsan", -der edi davra ahli. Haligi rostgo'y kishi qancha qasam ichsa ham, hech kim ishonmasdi. Ont ichishdan boshqa isboti ham yo'q edi. Ajumanda ko'pchilik oldida sharmanda bo'lib, boshi quyi egildi. Birdaniga davradagilarning so'zi tegib ketib darrov ketishga chog'landi. Bag'dod sari yo'l olib, rasmana tuyaqush olib, Hind diyori tomon yo'l oldi. U bir yil deganda shoh yoniga yetib keldi. Shoh uning sadoqatiga tahsinlar aytib, uning so'zini chin ekanligini tasdiqladi va shunday dedi:

Yolg'onchining tonggi bo'lmas charog'on,

Sadoqatli dildan chiqmagay yolg'on.

Lekin isboti uchun bir yil ketadigan rost so'zni so'zlash ham mushkul ishdir. Bir voqeani har kim o'zidan kelib chiqib baholaydi, albatta. Davra ahlining shevasi yolg'on bo'lgani uchun haligi kishining hikoyasiga ishonishmadi. Rostgo'y odam garchi fikrining isboti uchun bir yil ketsa-da, Bag'dodga yo'l olib, o'zining aytgan gaplari to'g'riligini isbotladi. Do'stlari oldida yuzi yorug' bo'ldi, ham shohning maqtiviga sazovor bo'ldi. U bir yillik yo'lning mashaqqatidan hecham

cho'chimadi. Shu o'rinda Hazrat Navoiyning bir mashhur baytlarini keltirish o'rinlidir:

Har kishikim tuzluk erur peshasi,

Kajrav esa charx ne andishasi.

Ya'ni:

Har kim o'ziga to'g'rilikni odat qilgandan keyin charxning teskari aylangani bilan uning nima ishi bor?!

Xullas, rostgo'ylik insonning martabasini oshiradi, to'g'rilikning yo'ldoshi faqat yaxshilikdir. Yolg'onchilarning boshi hech qachon xorlikdan chiqmaydi. Shuning uchun ham har qanday holatda ham to'g'ri so'z bo'lish kerak.

Libosi nag'z so'zi bemag'z yosh suxandon hikoyati.

Hikoya qilinishicha, ozoda, bilimdon hamda qanoatli bir hakim bo'lib uning yonina yosh barno yigit kelibti. O'ziga ko'p oro bergan bu yigit shohona libosda kirib kelidi. Uni majlis boshiga o'tkazdilar. Shunda yigit turli - tuman mavzulardan so'z ochib, suhbatdan so'z boshladi. U har xil mavzudan gapirdi, lekin so'z ma'nosi tobda emasdi. Uning so'zlarida umuman ma'no bo'lmay, buning ustiga xatolar ham qalashib yotardi. Majlisda behuda so'zlarni gapiraverib hammani joniga tegdi. Shunda dono hakim uni to'xtatib dedi: "Agar so'z so'ylashga mohir bo'lmasang, ustingdagi libos ham qimmat bo'lmasin, tilingdagi qator kamchiliklaringni aybini chiroyli kiyimlaring yuva olmaydi", - dedi.

Bir insonga bildiriladigan munosabat uning tashqi ko'rinishiga, gap so'zlariga qarab belgilanadi. Kiyinishi chiroyli bo'lsa-yu, aytadigan gaplarida ma'no-mazmun kam bo'lsa, bunday shaxs bilan suhbatdosh bo'lishni istamaymiz. Insoni qandayligini bilish uchun u bilan ikki og'iz

gaplashsakgina kifoya. Hikoya qahramoni ham chiroyli kiyinib olgani bilan uning nutqidagi g'alizlik ma'nisiz so'zlarini kiygan libosi oqlay olmasligi tayin. Buning ustiga yosh bo'la turib o'zidan katta yoshdagilarga ham gap bermay so'zlashning o'zi odobsizlikdir. O'zidan ulug' yoshdagi insonlarning davrasida o'tirganda to ular so'zlashga ruxsat bermagunlaricha yoki savol so'rmagunlaricha gap ochmay tinglovchi bo'lib turishi lozim. Shunday ekan gapiradigan so'zlari ham ma'noli bo'lsa mayli edi.

Eng ma'qul jihat ichki go'zallik va tashqi nafosatning uyg'unlashuvidir. Jomiy tabiri bilan aytganda:

So'zing kiyimingdek bekamu ko'st qil,

Yoki kiyimingni so'zingga rost qil.

Demak, yuqoridagi hikoyadan xulosa qilib, yosh suxandonga quyidagicha maslaxat berish mumkin.

Ichingni bezatgil tashqaring kabi,

Yo tashqing rangini qil iching kabi.

Xotiniga :” Nimadan foydalansang seniki, berkitib qo'yganing ozganiki”, degan hokim hikoyati.

Hikoya qilinishicha, bir donishmand bo'lib, kunlarning birida xotiniga bir hamyon kumush beribdi. Oradan bir necha kun o'tgach, o'sha kumushni so'rabdi. Xotin demishki: “ Qo'limga tegishi bilan siym, sanab ikkiga bo'ldim, bir qismini muhtojlarga ehson qildim, qolgan bir qismini o'zimga sarf etdim”. Hakim xotinining so'zlarini eshitgach, xursand bo'lib aytdi. “Bu ishing donolik bo'libdi, birovga berganing seniki, zardan devor qilsang ham u senki bo'lmasligi mumkin. Uning oxiri nima bo'lishini hech kim bilmaydi.

Ko'p o'rinlarda takrorlaganimizdek, har bir keltirilgan hikoyat Iskandar voqeasiga uyg'un bo'lishi, uning mazmun – mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi kerak.

Hikoyatda aytilganidek, hokimning xotini ehson qilgan kumushlarni o'ziniki, ya'ni u dunyoda bor zeb-ziynatlar unga savob bo'lishi mumkin. Qo'lidagi davlatni sarflasa, o'zi uchun biror ehtiyoji uchun ishlatgan bo'ladi. Yig'ib qo'ygani esa kimga tegishi noma'lum. Biror falokat bo'ladigan bo'lsa, u zarlarni o'ziga emas, boshqalarga nasib qiladi.

Iskandar ham butun dunyoni egalladi. Hatto dengiz tubiga ham tushib chiqdi. Qanchadan qancha boyliklar jaziralarga ega bo'ladi. Dunyo o'tkinchiligi sababli boshiga qazo ham yetdi. Kimning mol-davlati ham bo'lsa, shuncha mol-dunyosi bo'la turib Iskandar o'limi oldidan bir qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlarini vasiyat qiladi. Toki bu boshqalarga ibrat bo'lsin, shuncha mol- davlati bo'lsa-da, quruq qo'l bilan u dunyoga ketdi. To shu kunga qadar sarflaganlari o'zi uchun bo'lgan. Ishlatmay yig'ib yurganlari o'zgalarga nasib qildi.

Iskandarni beva-bechoralarga qilgan ehsonlari uni butun umr izzat-ehtirom bilan eslanishiga sabab bo'ladi. Dostonda keltiriladi.

Har ne bo'lsa bergan bu baxsh etishing,

Bilib qo'y, o'zingni banddan yechishing.

Har nechi qo'lingda seniki bul kun,

Erta deb shodlikka solmagil tugun.

Xazinangda agar bo'lsa zar, gavhar

U seniki emas, boshqaga tegar.

Demak, insoning tirikligida qilgan yaxshiliklari qoladi o'zi uchun, molidunyoni yig'ishdan foyda yo'qdir.

Bu faslda voqealar rivojida ham, g'oyaviy jihatdan ham bir-biridan farqlanuvchi hikoyatlar bilan tanishib chiqdik. Alisher Navoiy ham turli tuman mavzudagi hikoyatlarni keltirgan. Masalan: adolalat, do'stlik, ishq-muhabbat, saxovat va baxillik, nodonlik, ochko'zlik va boshqalar. Hazrat Navoiy dostonida ko'proq shohlar hayotidan lavhalar keltirilgan. ("Mas'ud va Mahmud", "Sulton Abu Said ko'ragon", "Ardasher", "Bahrom Go'r".) Ulardagi yetakchi mavzu ham adolatdir. Shohning adolati, odil siyosati bilan xalq farovon yashashi mumkin, noto'g'ri tadbir nimalarga, qanday oqibatlarga sabab bo'lishini hikoyatlar misolida ko'rsatadi.

Abdurahmon Jomiy "Xiradnomayi Iskandariy"ga qaysi tomonda yondashishiga qarab hikoyatlarni ham shu shu nuqtai nazardan tahlil qilish kerak. Jomiyning maqsadi Iskandarning donishmandligini tasvirlash bo'lgan. Jomiy so'fiy bo'lganligi uchun uning asarida tasavvufiy ruh ustunlik qiladi. Bizga ma'lumki, tasavvufda kibr juda qattiq qoralanadi. So'fiylikda eng yomon illatlardan biri nafs bo'lsa, ikkinchisi takabburlikdir. Shuni juda yaxshi bilgan Jomiy ko'p hikoyatlaridagi qahramonlarning manmanliklarini va takabburliklarini keskin tanqid ostiga oladi. Uning ko'pina hikoyatlarida mana shu mavzu yetakchilik qiladi.

Dostonlardagi mushtarak va farqli jihatlar deb nomlanuvchi bobimizga quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin.

1. Dostondagi hikoyatlarni quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:
 - A. Bir-biriga g'oya va mazmun jihatidan to'la mos keladigan hikoyatlar
 - B. Mazmun jihatdan qisman mos keladigan hikoyatlar
 - S. Yangi syujetdan tarkib topgan hikoyatlar

2. Birinchi tasnifga "Iskandar va gado" hikoyatini kiritsak, keyingisiga "Ardasher", "Baliqlar", "Mashqirdan ganj topgan kishi", "Hiyla bilan sodda baliqn qo'lga tushirgan baliqchi qush", "Tulki maslahatiga kirib suvg sho'ng'igan tuya va boshqalar hikoyatlarini misol qilib olishimiz mumkin.
3. Yangi syujetdan tarkib topgan hikoyatlarni o'qiganimizda, ikki ijodkor dostonlaridagi o'ziga xos jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa

Biz Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" va Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlaridagi hikoyatlarni qiyoslash asnosida quyidagi xolosalarga keldik:

1. Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" va Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari deyarli bir davrda, ya'ni 1485-yilda yaratilgan.
2. Abdurahmon Jomiyning dostoni hajman ancha kichik bo'lib 2315 baytdan iborat. Bu Navoiy dostoni bilan taqqoslaganda 3 baravar kam demakdir.
3. Jomiyning Iskandar Zulqarnayn haqidagi asari falsafiy-didaktik ruhda bo'lib, asosan pand-nasihatdan iborat, mazmun, voqelik ikkinchi darajali holga keltirilgan. Jomiy mutasavvuf ijodkor bo'lgani uchun "Xiradnomayi Iskandariy"da, asosan, so'fiyona fikrlari aks etgan. Jomiyning mazkur dostonni yozishdan maqsadi shoh Iskandarni emas, balki xalq manfaati uchun xizmat qiladigan donishmand hukmdorni tasvirlash edi.
4. Navoiy ham boshqa salaflaridan farqli o'laroq tarixiy Iskandarni emas, balki adolatparvar hukmdor va ideal hokimni o'z dostonining qahramoni

qilib olgan. Navoiy o'zining orzusidagi adolatli shohni Iskandar timsolida gavdalantiradi.

5. Jomiy va Navoiy badiiy ijodning ko'p qirralarida hamfikr va hamkor bo'lganlari uchun dostonlarida mushtarak va farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. Bu holat o'z navbatida hikoyatlar qismida ham namoyon bo'ladi.

6. "Saddi Iskandariy"da hikoyatlar soni 17 ta bo'lgani holda , bu ko'rsatkich "Xiradnomayi Iskandariy"da 20 tani tashkil etadi.

7. Har ikkala ijodkor ham Iskandarga qaysi tomondan yondashgan bo'lsalar, bu qarashlari hikoyatlarda ham o'z aksini topgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, har bir hikoyat Iskandar voqeasidan so'ng keltirilgan holda, uning mavzusiga monand va voqeani izohlashga qaratilgan.

8. Dostonlardagi hikoyatlarni shartli ravishda 3 guruhga ajratish mumkin.

- a) Bir-biriga g'oya va mazmun jihatidan to'la mos keladigan hikoyatlar;
- b) dostonlardagi g'oyaviy jihatdan uyg'un, lekin voqealar rivojida farqlanuvchi hikoyatlar;
- s) dostonlardagi mustaqil syujetga ega bo'lgan hikoyatlar.

9. "Saddi Iskandariy"dagi "Iskandar va gado", „Ardasher” , „Baliqlar” , „Mashriqdan ganj topgan kishi” hikoyatlari bilan Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostonidagi "Iskandar va gado", "Kalxat va qurbaqa", "Tulki maslahatiga kirib suvga sho'ng'igan tuya" hamda "Hiyla bilan sodda baliqni qo'lga tushirgan baliqchi qush", "Kalla nonni yeb turib, "nonim kichik ishtaham katta", deb yig'lagab bola" hikoyatlari g'oyaviy jihatdan uyg'un, voqealar rivojida farq qiluvchi hikoyatlar sirasiga kiradi.

10. Navoiy dostonidagi “Mas’ud va Mahmud”, “Ikki do’st”, “Bahrom Go’r”, “Bilagi kesilgan odam” hikoyatlari “Xiradnomayi Iskandariy”dagi “Bir hokimning bir nokasta bilan uchrashgani”, “Qishloq hokimi bilan uning o’g’li”, “Qing’ir fikrli kishilar orasida qolgan rostgo’y”, “Libosi nag’z, so’zi bemag’z yosh suxandon”, “Xotiniga: Nimadan foydalansang seniki, berkitib qo’yganing o’zganiki, degan hokim ” hikoyalari esa dostonlarda mustaqil syujetga ega bo’lgan hikoyatlarga misol bo’ladi.

11. Jomiy va Navoiy Iskandarga qaysi jihatdan yondashganini birgina “Iskandar va gado” hikoyati orqali kitobxonga ko’rsatib beradi. “Saddi Iskandariy”da bu hikoyat dostonnig boshida, ya’ni Iskandar endigina ota taxtini egallaganida keltiriladi. Chunki hikoyatda dunyoning o’tkinchiligi, u shohga ham, gadoga ham vafo qilmasligi haqidagi g’oya yetakchilik qiladi. Demak, Navoiy Iskandarga taxtni egallashining dastlabki kunlaridanoq bor kuchini mol-dunyo yig’ishga emas, balki mamlakatni adolat bilan boshqarishga sarflashi kerakligini uqtiradi.

“Xiradnomayi Iskandariy”da esa hikoyat doston so’nggida berilib, Iskandar egallagan Sinon shahrini tasvirlash orqali hukmdorsiz ham davlat bo’lishi mumkin, shoh faqat xalq manfaati uchun xizmat qilishi kerakligi hamda shoh ham, gado ham oxiratda bir xil mato-tuproqqa aylanishini tasvirlab bergan.

12. Jomiyning dostonida tasavvufiy bo’yoqlar quyuqroq bo’lgani uchun bu holat aksariyat hikoyatlarda ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Tasavvufda qoralanadigan kibr, nafs, ochko’zlik, manmanlik kabi illatlar dostonidagi hikoyatlarda ham insonning qusurlari sifatida ko’rsatilsa, Alisher Navoiyning adolatli shoh haqidagi orzulari “Saddi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlarda namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Юксак-маънавият енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2009
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз-келажак йўқ. – Т.: Ўзбекистон, 1993
3. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997

II. Matn va manbalar

4. Жомий Абдурахмон. Интихоб аз асарҳо.-Тожикистон: Сталинобод, 1956
5. Жомий Абдурахмон. Хирадномаи Искандарий.- Тошкент, 1978
6. Навоий Алишер. Садди Искандарий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. - Тошкент: Фан, 1992. 9 - жилд.
7. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'. G'ulom, 2006
8. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'. G'ulom, 2006
9. Навоий Алишер. Садди Искандарий. (насрий баёни билан) / Таҳрир хайъати А. Қаюмов ва бошқ. -Тошкент : Адабиёт ва санъат, 1991

III. Ilmiy adabiyotlar

10. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока.- Навоий Алишер. Садди Искандарий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. - Тошкент: Фан, 1992. 9 - жилд.
11. Афсахзод Аълохон. Лирика Абд ар-Рахмана Джами. Проблемы текста и поэтики. – М.: Наука, 1988

12. Азимов Ю. Абдурахмон Жомий “Хирадномайи Искандарий” достонининг қисъий-типологик таҳлили: Филол. фан. докт. дисс...-Самарқанд, 1996
13. Бертельс Е. Э. Избранные труды. Навои и Джами.- М.: Наука, 1965
14. Ислом тасаввуфи манбалари/ нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муааллифи Ҳ. Болтабоев.-Тошкент, 2004
15. Комилов Н. Тасаввуф.-Тошкент: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009
16. Конрад Н. И. Запад и Восток. – М. : Главная редакция Восточной литературы, 1972
17. Навоий замондошлари хотирасида / тузувчи Б. Аҳмедов. - Тошкент, 1985
18. Қаюмов А. “Садди Искандарий. -Тошкент : Адабиёт ва санъат, 1975
19. Қаюмов А. Ишқ водийсининг чечаклари. -Тошкент : Адабиёт ва санъат, 1985
20. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Тошкент : Адабиёт ва санъат, 1979
21. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Тошкент : Ўзбекистон, 1997
22. Эркинов А. С. Алишер Навоий ”Хамса”си талқинининг XV- XX аср манбалари: Филол. фан. докт. дисс...-Тошкент, 1998
23. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Akademnashr, 2013